

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI KAFEDRASI**

O'qit. O.Eshdavlatov

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy huquqi

fanidan milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'limi
yo`nalishi talabalari uchun

MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: o'qit. O. G'. Eshdavlatov

Taqrizchilar: yu.f.n X. R. Isanov
o'qit. A.O'tapov

Ushbu ma'ruzalar matni kafedraning 2010 yil _ avgustdagi 1-sonli yig'ilishda muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kirish

"Avvalo, barchamiz bir haqiqatni anglab, tushunib bormoqdamiz – bugun jamiyatimizda qanday yutuq va marralarga erishayotgan bo'lsak, bularning poydevorida Konstitutsiyamiz, buyuk hayot qomusimiz turibdi".^{1[1]}

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Chunki har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi hamda ushbu Asosiy qonunga o'zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng dastlabki va eng muhim qadam Konstitutsiyani o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishdan boshlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi ham demokratiya yo'lida ulkan bir qadam qo'yish uchun katta turtki bo'ldi. Darhaqiqat, ko'p narsa mamlakatda Konstitutsiyani ommaviy ravishda o'rganish hamda uni hayotga tatbiq etishga bog'liq. Mana shu maqsadda davlatimiz rahbari O'zbekiston Konstitutsiyasini **bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatish, maktablarda darslik tariqasida o'qitish hamda oliy o'quv yurtlarida esa maxsus dars sifatida o'rganishni**^{2[2]} vazifa qilib qo'ydi.

Shundan kelib chiqib, farmoyish asosida 2001 yil 1 sentabrdan mamlakatimizda uzluksiz huquqiy ta'limning asosi hisoblanmish Konstitutsiyani o'rganish bog'chadan boshlab to oliy ta'limning yuqori bosqichi hisoblanadigan magistraturagacha tashkil etildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining yuksak va mas'uliyatli burchidir.

Konstitutsiya -Asosiy qonun sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi, chunki Konstitutsiyada xalqning oliy irodasi o'zining qonuniy ifodasi hamda muxtasar bayonini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi esa mamlakat huquq tizimining yetakchi sohasi bo'lib, u hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat organlari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisidir. Ta'kidlash lozimki, konstitutsiyaviy huquq fani bo'yicha puxta bilimga ega bo'lish nafaqat o'qituvchi o'tadigan dars mashg'ulotlarida faol ishtirok etishni, balki talabaning mustaqil shug'ullanishini, Konstitutsiya va qonunlarni, tavsiya etilgan adabiyotlarni muntazam o'rganib borishni taqozo qiladi.

Mazkur matn O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, mamlakat Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari tajribalari asosida yaratildi.

^{1[1]} I. A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon sayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: "O'zbekiston", 2000. 87-bet

^{2[2]} I. A. Karimov. Konstitutsiya to'g'risida. Toshkent, 2001, 153 – bet.

I MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY HUQUQI FANI VA UNING PREDMETI.

REJA

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi tushunchasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi predmetining o'ziga xos
hususiyatlari.
3. Konstitutsiyaviy huquqi fanining nomi hususida.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining tizimi.

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimining mustaqil sohasi va alohida fan sifatida XVIII asrning oxirida paydo bo'lib, ushbu fanning asosiy g'oyalari va institutlari o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega.

«Konstitutsiya» atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “o'rnatish”, “belgilash” degan ma'nolarni anglatadi hamda u o'zining uzoq tarixiga ega. Dastlab «konstitutsiya» iborasi siyosiy tuzum ma'nosini anglatib, XVII asrda Fransiya ushbu atama renta hamda renta shartnomasiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik “Konstitutsiya” so'zi o'zining asl ma'nosiga qaytib, ushbu atama bilan huquqiy tomondan belgilab qo'yilgan davlat tuzumi nomlana boshlagan. Buyuk Fransuz inqilobi arafasida esa «Konstitutsiya» iborasi orqali «davlatning ahvoli» ifodalangan.

O'rta asrlarda Sharqda “Konstitutsiya” iborasining aynan o'zi bevosita ishlatilmagan bo'lsada, lekin XV-XVI asrlarda Amir Temur va Temuriylar davlatining asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi "Temur tuzuklari" sharqona huquqiy madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjat edi.

Konstitutsiyaviy huquqning paydo bo'lishiga va taraqqiyotiga bir qator konstitutsiyaviy ahamiyatga molik hujjatlar katta ta'sir ko'rsatgan.

Bunday hujjatlar jumlasiga 1215 yilda Angliyada qabul qilingan «Erkinliklarning buyuk Xartiyasi», 1697 yilgi «Xabeas korpus akt» («Habeas Corpus Act») va boshqa bir qator hujjatlar kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar hozirgi kunda ham Buyuk Britaniyada amaldagi konstitutsiyaviy hujjatlardan bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquq fani o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davomida vujudga kelgan.

Konstitutsiyaviy huquqning shakllanishida bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Bunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, dastlabki konstitutsiyaviy ahamiyatga molik hujjatlar. Masalan, AQShning 1776 yilgi "Mustaqillik deklaratsiyasi" va 1789 yilgi "Inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklaratsiyasi"ni misol qilib ko'rsatish mumkin. Amerikaning Mustaqillik Deklaratsiyasida ilk bor «Xalq davlat hokimiyatning manbaidir» degan konstitutsiyaviy qoida mustahkamlangan edi. Fransuz Deklaratsiyasining 16-moddasida esa «Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipiga ega bo'lmagan xalq konstitutsiyasiga ega bo'lmaydi», deb ta'kidlangan.

Ikkinchidan, insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli va umuminsoniy huquqiy qadriyat hisoblanadigan huquqiy nazariya va ta'limotlar. Masalan, inson huquqlarining tabiiy ajralmas ekanligi to'g'risidagi ta'limot konstitutsiyaviy huquqning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Tabiiy huquq konsepsiyasi AQShning Mustaqillik Deklaratsiyasida hamda Inson va fuqaro huquqlari Fransiya Deklaratsiyasida qonuniy ravishda mustahkamlangan edi. Hozirgi kunda inson huquqlari konstitutsiyaviy huquqning (predmetini) tashkil etuvchi asosiy masalalardan biridir.

Uchinchidan, dunyoda buyuk mutafakkirlarning davlat va huquqqa oid qoldirgan ulkan ilmiy-huquqiy merosi. Bunday olimlardan fransuz mutafakkiri Sharl Lui Monteskyeni ko'rsatish mumkin. U o'zining «Qonunlar ruhi» asarida hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqining asosiy tamoyillaridan hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab bergan.

Sharqning buyuk qomusiy allomalari Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiylar tomonidan bildirilgan davlat va huquqqa oid fikrlar ham Sharqda konstitutsiyaviy ta'limotlarni shakllanishida katta rol o'ynagan.

To'rtinchidan, turli davlatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligi va amaliyoti. XVIII-XIX asrlarda Amerika va Yevropada qabul qilingan konstitutsiyalar konstitutsiyaviy huquqning mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanishida katta rol o'ynagan. Chunki konstitutsiyalar konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda har bir davlatda konstitutsiyaviy huquqning paydo bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqining predmeti esa, XX asrning ikkinchi yarmida o'zini yakuniy shaklini oldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yordamida inson, jamiyat va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy huquq normalari inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi va ta'minlaydi. Bunday ustuvor yo'nalishlarni va oliy qadriyatlarni aniqlaydi va konstitutsiyaviy amaliyotni belgilab beradi. Bu oliy qadriyatlarga konstitutsiyaviy institutlar mos bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaviy institutlar esa o'z navbatida jamiyat va davlat tuzilishining prinsiplarini, davlat hokimiyati organlari tuzilishi va tizimini, davlat hokimiyati tashkil etilishi va nazorat qilinishini o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, avvalombor, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soladi. Ana shunday munosabatlar inson, jamiyat va davlat o'rtasida kelib chiqadi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari:

birinchidan, qonunchilik doirasida siyosiy munosabatlarning eng muhim qismini tartibga soladi;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarni muayyan tomonlarga yo'naltiriladi, ya'ni konstitutsiyaviy huquqning norma va prinsiplari ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotini belgilab beradi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi o'ziga xos predmetga ega. Uning predmetini asosan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi konstitutsiyaviy huquqiy normalar tizimi (yig'indisi)dir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi – mustaqil huquq sohasi bo'lib, u milliy huquqiy tizimning o'zagi, yadrosini tashkil etadi.

Konstitutsiya tushunchasi

"Konstitutsiya" tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lib, Konstitutsiyaga juda ko'p ta'riflar berilgan. "Konstitutsiya"ga turli xil ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan bir necha misollar keltiramiz.

Birinchi ta'rif: fransuz davlatshunos olimi J.Byurdoning Konstitutsiyaga bergan ta'rifi: "Konstitutsiya - siyosiy hokimiyatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko'rsatishga oid qoidalar yig'indisidir".

Ikkinchi ta'rifda esa ushbu (yuqoridagi) ta'rifga amerikalik olim K.Berd "Fuqarolar erkinliklari" tushunchasini qo'shadi.

Uchinchi ta'rif sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuyezening ta'rifini berashimiz mumkin: "Konstitutsiya - bu qonun kuchiga ega bo'lgan formal hujjat bo'lib, uning yordamida jamiyat o'z-o'zini boshqaradi hamda o'zining turli idoralari bilan shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o'rnatadi".

Ko'pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi.

Shu ma'noda, Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta'riflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya – xalq (millat) ning umumiy irodasini ifodalovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir deyilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliy huquqiy normaning ifoda bo'lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha, Konstitutsiya – umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umulashgan in'ikosidir.

Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo'lish (klassifikatsiyalash)

Turli mamlakatlardagi konstitutsiyalarni turli mezonlarga (kriteriyalarga) asosanib, har xil guruhlariga (turlarga) bo'lish mumkin.

Birinchidan, konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. 1. Yuridik Konstitutsiya (formal) - davlatning Asosiy Qonuni.
2. 2. Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy) - amaldagi real ijtimoiy munosabatlar.
1. 1. Tirik Konstitutsiya - AQSH Oliy Sudi bu Konstitutsiyani o'zgarayotgan ijtimoiy mezonlariga moslab kelmoqda.
2. 2. Fiktiv (soxta) Konstitutsiya - SSSRning 1936 yil Konstitutsiyasi.
1. 1. Moddiy Konstitutsiya - konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.
2. 2. Formal Konstitutsiya - Asosiy Qonun bo'lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliy yuridik kuchga ega.

Ikkinchidan, konstitutsiyalarni shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. 1. Yozma konstitutsiyalar.
2. 2. Og'zaki (yozilmagan) konstitutsiyalar - Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.
1. 1. Yaxlit konstitutsiyalar - Konstitutsiya matni yaxlit bo'lib, bir vaqtda qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston, Rossiya, Braziliya Konstitutsiyalari yaxlit Konstitutsiyalarga misol bo'la oladi.
2. 2. Yaxlit bo'lmagan (noyaxlit) konstitutsiyalar - bunday Konstitutsiyalar turli vaqtda qabul qilingan qonunlardan iborat bo'ladi. Masalan, Shvetsiya, Finlandiya, Isroil konstitutsiyalari.
1. 1. Yumshoq konstitutsiyalar - bunday Konstitutsiyalar oddiy qonunlar kabi o'zgartiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya Konstitutsiyasiga 350ga yaqin qonunlar kiradi va oddiy tartibda o'zgartiriladi.
2. 2. Qattiq konstitutsiyalar - alohida murakkab tartibda o'zgartiriladi. Masalan, AQSH, Rossiya, O'zbekiston konstitutsiyalari.
1. 1. Doimiy konstitutsiyalar. Aksariyat konstitutsiyalar doimiydir.
2. 2. Vaqtinchalik (muvaqqat) konstitutsiyalar - Iroqda 1970 yil Birlashgan Arab Amirligida 1971 yildan beri harakatda bo'lgan konstitutsiyalar.

Uchinchidan, konstitutsiyalarni ularni ijtimoiy mazmuniga qarab ham bir necha turga bo'lish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ortiq Konstitutsiya bor (federativ davlatlar subyektlarining Konstitutsiyalari bilan birga). Bu Konstitutsiyalar turli tarixiy davrda qabul qilingan bo'lib, har xil ijtimoiy mazmunga ega.

1. 1. Farb mamlakatlari Konstitutsiyalari.
2. 2. Rivojlanayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari.
3. 3. O'tish davri mamlakatlari Konstitutsiyalari.
4. 4. Teokratik davlatlar Konstitutsiyalari.

Konstitutsiyalarni quyidagi turlarga ham bo'lish mumkin:

1. 1. Demokratik Konstitutsiyalar.
2. 2. Avtoritar Konstitutsiyalar.
3. 3. Totalitar Konstitutsiyalar.

Konstitutsiyalarni turli guruhlariga bo'lish tabiiydir. Har qanday klassifikatsiya konstitutsiyalarni u yoki bu jixatini yaqqolroq, ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy huquq fanida Konstitutsiya tushunchasi ikki xil ma'noga ega deb qaraladi. Shu ma'noda formal va moddiy Konstitutsiya farqlanadi.

Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquq fanida formal Konstitutsiya deganda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan, qabul qilinishi va o'zgartirilishi alohida tartibda amalga oshiriladigan qonun tushuniladi.

Moddiy ma'nodagi Konstitutsiya deganda esa davlat hokimiyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi. Bunday asosiy narsa tartibga solish predmeti va ijtimoiy munosabatlarni mazmunidir.

Fransuz olimi F.Ardan: "Konstitutsiya - davlat hokimiyatining sinonimidir. Shuning uchun hatto yozma hujjat bo'lmaganda ham davlat o'z Konstitutsiyasiga ham ega bo'ladi. Agar davlat yozma hujjat ega bo'lganda ham Konstitutsiyani o'zida aks ettirmaydi", -deb yozgan edi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy huquq fanida moddiy yoki amaliy Konstitutsiya deganda davlat hokimiyatini hayotdagi amalga oshirilishi tushiniladi.

Moddiy Konstitutsiya-real harakatdagi amaliy Konstitutsiyadir.

Formal yoki yuridik Konstitutsiya-davlatning asosiy qonunidir. Yuridik Konstitutsiya davlat hokimiyatini tashkil etish va shaxsni huquqiy maqomini belgilash asoslarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiya eng muhim yuridik hujjat, oliy normativ - huquqiy akt sifatida quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

1. 1. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonunidir.
2. 2. Konstitutsiya - oliy yuridik kuchga ega.
3. 3. Konstitutsiya alohida tartibda qabul qilinadi va o'zgartiriladi.
4. 4. Konstitutsiya muhim siyosiy hujjatdir.
5. 5. Konstitutsiya muhim mafkuraviy hujjatdir.
6. 6. Konstitutsiya muhim yuridik hujjatdir.
7. 7. Konstitutsiya milliy huquqiy tizimning o'zagini tashkil etadi.
8. 8. Konstitutsiya - huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning asosi.

Konstitutsiyaning qabul qilishning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin:

1. 1. Ta'sis (konstitutsiyaviy) majlis tomonidan. Braziliya (1988), Portugaliya (1976), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991) Konstitutsiyalari shu usul bilan qabul qilingan.

2. 2. Amaldagi parlament tomonidan - O'zbekiston (1992) Xitoy (1992), Tanzaniya (1977) Konstitutsiyalari misolida.

3. 3. Referendum yo'li bilan - Rossiya (1993), Fransiya (1958), Qozog'iston (1995), Kuba (1976), Chili (1980) kabi davlat konstitutsiyalari referendum yo'li bilan qabul qilingan.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda Konstitutsiyalar hadya etish yo'li bilan ham qabul qilinadi. Hadya etishning 3 yo'li mavjud:

1. Mutlaq monarxiya sharoitida Konstitutsiyani o'z xalqiga podsho, qirol, sulton, monarx hadya qiladi. Buni Nepal (1962), Saudiya Arabistoni (1992) Konstitutsiyalari misolida ko'rishimiz mumkin.

2. Metropoliya mustamlakachi davlat o'z mustamlakasiga Konstitutsiya hadya qiladi va uning mustaqil davlatligini tan oladi. Buyuk Britaniya 1979 yil Zimbabvega Konstitutsiya hadya qilgan.

3. Harbiy yoki revolyutsion Kengash Konstitutsiyani hadya qiladi. Masalan, Misr, Suriya, Iroq, Afg'oniston Konstitutsiyalari shu tarzda qabul qilingan.

Ayrim davlatlarda Konstitutsiyaning ayrim boblari o'zgartirilishi mumkin emas. Masalan, Rossiya Konstitutsiyasining 1, 2 va 9- boblari o'zgartirilishi mumkin emas.

Ko'pchilik davlatlarda Konstitutsiya moddalarini o'zgartirish uchun mutlaq ko'p ovoz olish kerak (odatda 2/3). Federativ davlatlarda federatsiya subyektlarining ko'pchiligi (Rossiyada 2/3 qismi, AQShda 3/4 qismi) roziligini (ratifikatsiya qilishi) talab etiladi. Hindiston, Kanada, Pokistonda esa federatsiya subyektlarining roziligi talab qilinmaydi.

Ayrim hollarda (Skandinaviya mamlakatlarida) Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish uchun albatta referendum chaqirilishi kerak. Ba'zi davlatlarda (Italiya) o'zgartirishlar kiritish uchun parlament 2 palatasining mutlaq ko'p ovozini olish kerak.

Unchalik muhim bo'lmagan o'zgartirishlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan kiritilishi mumkin (Hindiston). Vengriyada Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi referendum yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin emas.

Ba'zi hollarda esa Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishni qonun tashabbusiga ega bo'lgan barcha subyektlarning o'zlarigina taklif eta olmaydilar. Masalan, Gretsiyada Prezident va parlamentning 150 deputati roziligi bilan, Avstriyada boshqa subyektlar bilan birga xalq tashabbusi, ya'ni 100 ming imzo bilan, Italiyada 50 ming imzo bilan o'zgartirishlar taklif qilinishi mumkin.

Odatda Konstitutsiyani urush yoki favqulodda holat davrida qayta ko'rish mumkin emas. Meksikada Konstitutsiya umuman o'zgartirilmaydigan hujjat sifatida qaraladi.

Konstitutsiyani bekor qilishi va uning yangi matn bilan o'zgartirilishi juda kam uchraydigan hollardan bo'lib hisoblanadi. Masalan, Shri-Lanka, Janubiy Afrika Respublikasi, Rossiyada Konstitutsiyani qayta ko'rish uchun konstitutsiyaviy majlis zarur.

O'zini-o'zi nazorat qilish savollari

- | | | |
|-----|-----|---|
| 1. | 7. | «Konstitutsiya» so'zining lug'aviy ma'nosini nima ? |
| 2. | 8. | Konstitutsiyaning yuridik belgilarini sanab bering? |
| 3. | 9. | Konstitutsiyaning shakli deganda nimani tushunasiz? |
| 4. | 10. | Konstitutsiyaning ijtimoiy mazmuniga ko'ra necha turga bo'linadi? |
| 5. | 11. | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi ayting? |
| 6. | 12. | Konstitutsiya qanday usullar asosida qabul qilinadi? |
| 7. | 13. | Konstitutsiyaning bevosita amal qilish necha xil ko'rinishlari mavjud? |
| 8. | 14. | Konstitutsiyaning ichki shakli elementlarini sanab bering? |
| 9. | 15. | Konstitutsiyaning qabul qilish jarayoni oddiy qonunlar bilan nimasi bilan farqlanadi? |
| 10. | 16. | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'zgartirish tartibi qanday belgilangan? |
| 11. | 17. | Konstitutsiyaviy nazoratning qanday turlari mavjud? |

II MAVZU. O`zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi

REJA

- 1. O`zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi**
- 2. O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati**
- 3. Prezident – Konstitutsiyaning tashabbuskori, yaratuvchisi va kafili**
- 4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o`zgartirishlar kiritish tartibi**

1. O`zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi

Tarixda "Turon", "Turkiston" va "Movarounnahr" nomi bilan mashhur bo`lgan O`rta Osiyo, ayniqsa, O`zbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab yashnadi, qudratli davlatlar mavjud bo`ldi. Ular insoniyat tarixida sezilarli iz qoldirdi.^{3[12]}

Masalan, tarixiy manbalarga ko`ra, XIII-XIX asrlarda Movarounnahrda davlatning huquqiy ahvoriga ma`lum darajada ta`sir ko`rsatib kelgan Amir Temur tuzuklari Sharqona madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjatlar edi.^{4[13]}

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda mustaqilligimizning mustahkamlab qo`yilishi ota-bobolarimizning uzoq yillar mobaynida olib borgan kurashlari natijasidir.

Ma`lumki, Rossiya imperiyasida 1917 yil oktabr oyida davlat to`ntarishi bo`lib o`tdi, o`zlarini xalqparvar deb e`lon qilgan, kommunistlar hokimiyatni qo`lga oldilar. Shundan keyin O`rta Osiyoda o`rnatilgan shovinistik tengsizlik natijasida milliy ozodlik harakatlari vujudga keldi. Boshqa millatlarni bir-biriga qarshi qo`yish, (masalan dashnoqlarga, O`rta Osiyoda mahalliy xalqni qirg`in qilishlariga sharoit yaratib berildi) kabi salbiy ishlarni amalga oshirdilar. Turkiston ASSRning 1918 va 1920 yillaridagi Konstitutsiyalari, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining 1920-1921-1923 yillardagi konstitutsiyalari, O`zbekiston SSRning 1927, 1937, 1978 yillardagi Konstitutsiyalarni qabul qilgan edi.

Sovetlar davrida O`zbekiston hududida 1918 yil 30 apreldagi Beshinchi Turkiston syezdida va Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi RSFSRning tarkibiga kiritilib, Turkiston ASSR ning muvaqqat (vaqtinchalik) konstitutsiyaviy "Nizomi" qabul qilingan edi.^{5[14]}

Nizomga ko`ra:

1. 1. Turkiston O`lkasining hududi, Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirib, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi deb e`lon qilinadi.

2. 2. Turkiston O`lkasining tarkibiga, Buxoro va Xivadan tashqari, uning geografik chegaralarining hammasi kiradi.

3. 3. Turkiston Sovet Respublikasi Avtonom boshqaruvda bo`lib, davlatdagi hamma sohalarni boshqarishda Rossiya Sovet Federatsiyasi hukumatini tan oladi.

4. 4. Turkiston Respublikasining Oliy qonunchilik organi, ishchi, soldat, krestyan va musulmon deputat dehqonlarining 1 dekabrda chaqiriladigan syezdi hisoblanadi.

5. 5. Doimiy qonunchilik organi syezd tomonidan saylangan 36 kishilik Turkiston o`lkasining Markaziy Ijroiya Qo`mitasi hisoblanadi.

6. 6. Ijro etuvchi hokimiyat vazifasi syezd tomonidan saylangan 16 kishilik Xalq Komissarlari Sovetlariga yuklanadi va ularga O`lkani boshqarish topshiriladi.

7. 7. Joylardagi butun hokimiyat, Sovetlar va ularning Ijroiya Qo`mitalari hisoblanadi.

Turkiston Sovet Avtonomiyasi e`lon qilinishi, kommunistlarning eng birinchi g`alabasi bo`lib, sharqdagi "lenincha" siyosatni mustamlaka davlat tuzilishida amaliy ro`yobga chiqishi edi.

Turkiston ASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 15 oktabr kuni Sovetlar o`lkasining VI syezdida 1918 yil 10 iyulidagi RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan edi. Turkiston ASSR Konstitutsiyasi olti bo`limdan iborat bo`lib:

^{3[12]} Karimov I.A: "Bunyodkorlik yo`lidan", T., "O`zbekiston " – 1996. 340-bet

^{4[13]} A.X Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. T.: 1993, 3-bet.

^{5[14]} Qayumov R.Q. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997y. 54 b.

- I – mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi;
- II – Umumiy qoidalar;
- III – Sovet hokimiyatining tuzilishi;
- IV – Aktiv va passiv saylov huquqi;
- V – Budjet huquqi;
- VI - Turkiston ASSR gerbi va bayrog'i haqida;

Turkiston ASSRning ikkinchi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentabrda Turkiston Sovetlarining IX-syezdidagi Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan sanksiyalangan: "Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi sifatida avtonomdir" degan qarori ostida qabul qilinib, Turkiston ASSRning "qanday yashash huquqi" aniq qilib qo'yilgan edi.

Turkiston ASSRning bu Konstitutsiyasi: 6 bo'lim 20 bobdan iborat bo'lib, 109-moddani o'z ichiga olgan. 1-bo'limi: "Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi", 2-bo'limi: "RSFSR Konstitutsiyasi, asosiy nizom" deb atalib, 1918 yilgi RSFSR Konstitutsiyasining asl nusxasi kiritilgan. RSFSR bilan o'zaro munosabatlari hamda Turkiston ASSRning ijtimoiy va davlat tuzilishidagi huquqlari 3-bo'limda o'z aksini topgan.

IV-bo'limida esa, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatini tashkil etishga bag'ishlangan edi, Markaziy organ to'qqiz kishidan iborat bo'lishi, Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Sovetlar syezdining Prezidiumi, Xalq Komissarlari Sovetlarini tashkil etish tartib-qoidalarini ko'rsatib berilgan.

Avtonom Respublikaning Xalq Komissarlari Sovetlari tizimiga viloyatlar, uyezdlar, shaharlar, qishloqlarning ishchi va qizil armiyachi sovetlari, deputatlari va ularning qo'mitalari kirdi. Konstitutsiyaning V-bo'limida aktiv va passiv saylov huquqi o'rnatilib, saylanish qoidalar va saylangan deputatlarni muddatidan oldin chaqirib olish kabi tartiblar belgilangan edi.

Oxirgi VI-bo'limi Turkiston ASSRning moliya va budjetiga bag'ishlangan. Turkiston ASSRning 1920 yildagi Konstitutsiyasi o'sha paytdagi Rossiyadagi milliy qonuniyatlari asosida o'zlarining yashash tarziga asoslanib qabul qilingan. Turkiston ASSR bilan birga hozirgi O'zbekiston hududida Xorazm va Buxoro xalq Sovet Respublikalarida ham 1920-1923 yillardagi Konstitutsiyalar qabul qilingan.

Bu Konstitutsiya milliy-davlat tuzumiga qarshi tuzilgan bo'lib, Sovetlar hokimiyatini o'rnatishning birinchi bosqichida mamlakatdagi ishlab-chiqarish vositalarini hususiy mulkligicha saqlash, yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kimning o'z boyliklaridan erkin foydalanish huquqlari cheklashlarsiz ruxsat etilgan.

1924 yil 29 oktabrida XXSR Sovetlarining V-syezdi chaqirilib, "Milliy-hududiy chegaralanish deklaratsiyasi"ni qabul qilgan. Bu deklaratsiyaga binoan, Turkiston ASSR Buxoro va XXSR xududida yangi tashkil etilayotgan, O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston Avtonom viloyatlari tashkil etildi.

O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi natijasida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalarining o'rnida O'zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston Avtonom viloyatlari tashkil etilgan.

Hozirgi O'rta Osiyo respublikalarining konstitutsiyaviy-tarixiy davlat qurilishi sobiq ittifoq xukmronligiga o'tgan davrdan boshlab, 1917 yilgi soxta kommunistlarning (davlat to'ntarishi) inqilobi yuz bergan vaqtdan to 1922 yilga qadar jarayonlarni o'z ichiga oladi.

1922 yil 30 dekabrda "Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining tuzish haqidagi deklaratsiya" va "SSR ittifoqining tuzish haqidagi shartnoma" SSSR konstitutsiyasini yaratilishiga asos solgan edi.

"SSR ittifoqini tuzish haqida deklaratsiya"da teng huquqli ittifoqdosh respublikalarning ixtiyoriy ravishda birlashuvini e'lon qilib, uning tarkibiga boshqa davlatlarning kirishi ochiq deb ko'rsatildi. Shuningdek undan chiqish erkinligi huquqi ham belgilangan edi.

1922 yil 30 dekabrda tashkil etilgan SSSR tarkibiga Ukraina SSR, Belorussiya SSR va Kavkazorti respublikalari kiritilgan. Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalar konstitutsiyaviy tarixiy bosqichlarini ikki davrga bo'lib, tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Birinchi davr 1917-1922 yillarni o'z ichiga olsa, 1924-1991 yillar so'nggi davri bo'lib hisoblanadi. 1925

yil 17 fevralda O'zbekiston SSRning I-syezdi bo'lib, 1924 yil 31 yanvardagi SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq, "O'zbekiston SSRni tashkil etish to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilingan. SSSR Konstitutsiyasining I-bo'limi: "Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqini tuzish haqidagi deklaratsiya" va "Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini tuzish haqida shartnoma"dan iborat bo'lgan.

O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiya loyihasi Sovetlarining II-syezdida 1927 yil 27-31 mart kunlari tasdiqlangan. Bu Konstitutsiyada ham boshqa Ittifoq respublikalari Konstitutsiyalaridagidek, davlat hokimiyati vakolatlarini "ishchi dehqon va qizil askar Sovetlarining deputatlari amalga oshiradilar", deb belgilangan. O'zbekiston tarkibiga Tojikiston Avtonom respublikasi kiritilgan. Bunda ko'pgina vakolatlar Tojikiston ASSRga berilgan bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalarga bag'ishlangan.

1937 yil 14 fevralda Butun O'zbekiston Sovetlarining Favqulotda VI-syezdi O'zSSRning ikkinchi Konstitutsiyasini SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasiga mos ravishda qabul qilgan. Bu Konstitutsiya 13 bobdan iborat bo'lib: I bob – ijtimoiy tuzilishi; II bob – davlat tuzilishi; III bob – UzSSR davlat hokimiyatining oliy organlariga bag'ishlangan; IV bob – UzSSR davlati idora organlari haqida; V bob – Qoraqalpog'iston ASSR davlat hokimiyati oliy organlarini tuzilishi belgilangan; VI bob – Qoraqalpog'iston ASSR davlat idora organlari haqida; VII bob – davlat hokimiyati mahalliy organlarning faoliyat prinsiplari belgilangan; VIII bob – UzSSR budjeti to'g'risida; IX bob – sud va prokuratura organlari tuzilishi; X bob – fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlari haqida; XI bob – saylov tizimiga bag'ishlangan; XII bob – gerb, bayroq, poytaxt; XIII bob – Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi belgilandi. Ushbu qabul qilingan O'zbekiston SSRning ikkinchi Konstitutsiyasi SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasini so'zma-so'z takrorlaydi.

Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolarning teng huquqliligi, matbuot erkinligi, ommaviy yig'ilishlar o'tkazish, ko'chalarda namoyish o'tkazish huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Bu huquqlar faqat qog'ozlarda SSSRdagi siyosatning boshqa davlatlarga namoyish etilishi uchun yozib qo'yilgan.

1937 yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari joylardagi Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qisman o'zgartirilgan (saylash huquqi 20 yoshdan qilib, vakolat muddati qishloq, posyolka Sovetlariga 2 yarim yil muddat qilib, viloyat, tuman Sovetlariga 5 yil muddat qilib belgilangan). Shuningdek, respublika Oliy Soveti va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ma'muriy-hududiy tuzilishi, prokuratura, sud organlari tuzilishi, Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartiblari belgilangan.

1978 yili O'zSSRning uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan. 1978 yil 19 mart kuni O'zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi matbuotda e'lon qilingan. O'zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O'zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktabrida amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan va 19 aprel kuni qabul qilingan. Konstitutsiyaning tuzilishi kirish qismidan, XI bo'lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo'lib, ushbu Konstitutsiyada ham Sovet hokimiyatini amalga oshish qoidalari va ishchi dehqon sinfining kommunistik jamiyat qurishdan iborat oliy maqsadi belgilab berilgan. Masalan, Konstitutsiyaning kirish qismida, "xalq davlat hokimiyatini Sovetlar orqali amalga oshiradi" deb "kommunistik partiyaning jamiyat hayotidagi rahbarligi va yetakchilik qilishi"ga ko'p ta'rif berilgan. 70 yildan oshiqroq vaqt davomida qabul qilingan Konstitutsiyalarda xalq hokimiyati haqida chiroyli so'zlar bayon qilingan, lekin amalda joylarda tuzilgan viloyat, tuman, shahar, qishloq va posyolka Sovetlari kommunistik partiya dasturlari, rejaları bilan tashkil qilingan, soxta saylovlar o'tkazilgan jamiyat va davlat hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan.

1991 yilning 19-21 avgust kunlari Moskvada sodir bo'lgan davlat to'ntarishi, SSSRning imperiya sifatida bundan buyon hukmronlik qilishga qodir emasligini ma'lum qilib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko'ra bilganligi va unga to'g'ri baho bera olganligi, shunda ko'rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib u 1990 yil 20 iyunda "O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi. O'sha davrda Ittifoqni tish-tirnog'i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg'ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O'zbekistonni Mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo'llab-quvvatlanganligi O'zbekistonning tinch yo'l bilan o'z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi.

O'zbekiston o'zining maqsad va taraqqiyot yo'lini belgilab, 1991 yil 31 avgustdagi Oliy Kengash yig'ilishida qabul qilingan "Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunni butun dunyoga e'lon qildi. 1991 yil 21 dekabrda Sobiq Ittifoq respublikalari rahbarlari o'zaro hamkorlikni tenglik asosida, xalqaro huquq normalariga tayangan holda tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadida va sobiq Ittifoq taqdirini uzil-kesil hal etish uchun Olmaotada uchrashdilar. Sakiz respublikaga Armaniston, Moldaviya va Ozarbayjon Respublikalari ham qo'shildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi deklaratsiyasiga 11 respublika rahbarlari qo'l qo'ydilar:

Shunday qilib, 1922 yilda ta'sis etilgan SSSR Ittifoqi barham topdi va Olmaotada 11 ta Mustaqil Davlatlarning Hamdo'stligi vujudga keldi.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko'ra bilganligi va unga to'g'ri baho bera olganligi, shunda ko'rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib u 1990 yil 20 iyunda "Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi. O'sha davrda Ittifoqni tish-tirnog'i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg'ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O'zbekistonni Mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo'llab-quvvatlanganligi O'zbekistonning tinch yo'l bilan o'z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishida, avvalo, 1990 yil 24 mart kuni Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bo'lib Prezidentlik lavozimining joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimining joriy etilishi mustaqillik g'oyalarini tezkorlik bilan amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengash yig'ilishi chaqirilib, "Mustaqillik Deklaratsiya"si qabul qilindi. Bu hujjatning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u o'zbek davlatchiligi tarixidagi birinchi tinch yo'l bilan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi to'g'risidagi hujjat edi. Unga ko'ra, o'zbek xalqi davlat boshqaruvida har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini va farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb o'z zimmasiga olgan holda, xalqaro huquq qoidalariga asoslanib o'zining "Mustaqillik Deklaratsiya"sini e'lon qildi. Va bundan buyon O'zbekiston o'zining tashqi munosabatlarida, davlat hokimiyati masalalarini hal etishda tanho hokimligini, uning chegaralari va hududi daxlsiz ekanligi, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etishi va demokratik huquqiy davlat tashkil topganligini butun dunyoga ma'lum qildi.

Davlat va jamiyat hayotidagi muammolarni tezkorlik bilan hal etish kechiktirib bo'lmas ahamiyatga ega edi. Chunki o'sha vaqtlarda SSSRning taqdiri hal bo'layotgan edi. "markaz" rahbarlari xalqni har xil siyosiy yo'llar va kuch bilan qo'rqitib, Ittifoqni saqlab qolishga harakat qilayotgan edilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko'ra bilganligi va unga to'g'ri baho bera olganligi, shunda ko'rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib u 1990 yil 20 iyunda "O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qildi. O'sha davrda Ittifoqni tish-tirnog'i bilan saqlab

qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg'ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin.

Shunga qaramasdan 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasi chaqirilib, "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonot"i e'lon qilindi: "O'tmishdan saboq chiqarib Ittifoqning siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib, xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab, shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasida chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatni bayon etib, millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, respublika hududida yashovchi har biri kishining munosib hayot kechirishini sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etishga intilib, "Mustaqillik Deklaratsiya"sini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi".^{6[17]}

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ga va "Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti"ga asoslanib, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qildi. Ushbu qonun O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligini uzil-kesil mustahkamladi. Unda, jumladan "O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir" deyiladi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi... O'zbekistonning davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilinishini taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi."^{7[18]}

Respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab-chiqish zururligi to'g'risidagi g'oya XII chaqiriq Oliy Kengashning 1990 yil martida bo'lib o'tgan birinchi sessiyasidayoq yangragan edi. Oliy Kengashning 1990 yil iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasi respublika Prezidenti I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tashkil etdi. Komissiya tarkibiga viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakillari, xo'jaliklar, korxonalarning rahbarlari, davlat va jamoat idoralari rahbarlari, olimlar va xalq xo'jaligi mutaxassislari kirdi. Komissiya a'zosi bo'lgan akademik SH.Z.O'razayevning "Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi" nomli risolasiida quyidagilar bayon qilingan:

...Shunday qilib, Prezident I.A.Karimovning zimmasida ikkita eng muhim muammoni hal etish vazifasi turgan edi. Bu-respublikaning davlat mustaqilligini ta'minlash va uning Konstitutsiyasini qabul qilishdir. Mazkur vazifalar kechiktirib bo'lmas, birinchi darajali mazmun kasb etib turgan ijtimoiy muammolarni hal etishga e'tiborni susaytirmagan holda amalga oshirilishi lozim edi.

Konstitutsiya bu muhobatli asar, butun qonunchilikning umurtqa pog'anasi. Qanday bo'lishi lozimligini oldindan bilmay turib, uning Konstitutsiya komissiyasining topshirig'iga binoan, ishchi guruhi, eng avvalo bo'lajak Konstitutsiyaning konsepsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Uchta konsepsiya tayyorlandi. Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi (u Fanlar akademiyasi rayosati tomonidan muxokama qilindi va tasdiqlandi). Siyosatshunoslik instituti konsepsiyasi va Prezident devonining davlat sho'basi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi komissiyasining bir guruh a'zolari bu konsepsiyalarning g'oyalarini umumlashtirib, ulardan bitta asos ishlab chiqdilar. So'ngra Konstitutsiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ana shu konsepsiya asosida ish boshlab yuborildi.

Loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. I.A.Karimov bu loyiha bilan tanishib chiqib, kam ish qilinganligi to'g'risida gapirdi va yo'llanma berib, bo'lg'usi loyiha shakl-tamoyillariga oydinlik kiritib berdi.

^{6[17]} Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti. Xalq so'zi. 1991 yil 2 sentabr.

^{7[18]} SH.Z.O'razayev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T.: "Adolat", 1994 y. 7-bet.

Loyihaning ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat bo'ldi. Respublika Prezidenti yana qo'lga qalam olib, matnni yaxshilab ko'rib chiqdi. Shu tariqa Konstitutsiya komissiya raisining nigohidan o'tgach, loyiha lo'nda va ifodali bo'lib bordi.

Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil qilar edi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan o'rganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. Konstitutsiya komissiyasining qarori bilan loyiha 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muxokamasi barcha mehnat jamoalarida, korxonalar, o'quv yurtlarida, idoralar va vazirliklarda, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi faollarining yig'ilishlarida, matbuotda, televideniye va radioda, xalq demokratik partiyasining Markaziy Kengashlari va mahalliy tashkilotlarda, kasaba uyushmalari hamda xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlarida, ijodiy uyushmalarda, olimlarning birlashmalarida va boshqa tashkilotlarda bo'lib o'tdi.

Konstitutsiya komissiyasiga kelgan fikrlar, taklif va mulohazalarni hisobga olgan holda muhokamani davom ettirish uchun 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Respublika fuqarolari loyihaga kiritilgan o'zgartirishlar va aniqliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasi matbuotda ikki marta e'lon qilindi va umumxalq muxokamasidan o'tdi. Buning yakunlari bo'yicha komissiya yana bir bor loyihani ko'rib chiqib Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya etdi. Loyiha Oliy Kengashning sessiyasida moddama-modda muxokama qilinib uzoq tortishuvlar, xilma-xil fikrlar bildirilgan holda qabul qilindi.

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasi mustaqil O'zbekiston demokratik suveren davlatining birinchi Konstitutsiyasi bo'ldi, mustaqil davlat omillaridan kelib chiqib yaratilganligi bu Konstitutsiyaning o'ziga xos hususiyati deb hisoblash lozim. Dastlabki, moddasidan tortib to oxirgi 128 moddasigacha u mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan.^{8[23]}

4. Prezident – Konstitutsiyaning tashabbuskori, yaratuvchisi va kafili

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yish muammosi yuzaga keldi. O'zbekiston Prezidenti mamlakatni o'zining rivojlanish yo'lini konstitutsiyaviy asosda belgilab olishi zarurligini bir necha bor ta'kidlagandi. "Davlatimizning kelajagi, **xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq**^{9[32]}, – degan edi yurtboshimiz.

Bizga yangi mustaqil davlatimizning xususiyati, ichki va tashqi siyosatining asosiy qoidalari, umuminsoniy qadriyatlarga, inson huquqlariga, davlat mustaqilligi prinsiplariga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga sodiqligi aks etgan Konstitutsiya kerak edi.

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurligi haqidagi g'oya Respublikamizning 1990 yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'lishi ta'kidlangan edi. O'sha kuniyoq Oliy Kengash O'zbekiston Prezidenti boshchiligidagi konstitutsiyaviy komissiya tuzgan edi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Unda belgilangan qoidalar amaliyotda bir yarim yil mobaynida sinovdan o'tdi, so'ngra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasiga kiritildi. Undagi qoidalar

^{8[23]} SH.Z.O'razayev: «Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi» T., «Adolat» 1994, 32-bet.

^{9[32]} Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 124-b.

Islom Karimov ifodalab bergan g'oya va prinsiplarni mustahkamladi. Konstitutsiya loyihasi o'zining tuzilishi bilan O'zbekiston Prezidentining ulkan yaratuvchilik va islohotchilik faoliyati natijasi ekanligini ko'rsatib turardi. Shuningdek uning zimmasiga jamiyatni yangilash, o'tish davrining murakkab sharoitida davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, davlat-huquqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishning pishib yetilgan muammolarini hal qilish kabi tarixiy vazifani yukladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Prezidentimiz buyuk davlat va jamoat arbobi, iste'dodli siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo'ldi.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi

Konstitutsiyaning davlatdagi Asosiy qonun sifatida e'tirof etilishi dunyoda uning ahamiyati va mavqeining oshib borishi bilan uyg'unlashib, Konstitutsiyaviylik g'oyasini rivojlantirishda muhim talablardan biri hisoblanadi. Bizning mamlakatimiz tarixida bir nechta Konstitutsiyalar qabul qilingan bo'lib, ularning mazmun va mohiyati o'sha davr shart-sharoitlari bilan o'lchanadi.

Konstitutsiya va qonunlarning qabul qilinishi va o'zgartirilishi jarayonlarida davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va bizning hududimizda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining taklif mulohazalari bilan ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, dunyo mamlakatlarining hayotiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyalar turli xil usullar asosida qabul qilinishi mumkin:

birinchidan, Konstitutsiya hokimiyatning Oliy organi tomonidan ishlab chiqiladi va xalq muhokamasidan o'tgandan so'ng qabul qilinadi (O'zbekistonda Oliy Majlis, Ukrainada Oliy Rada, AQShda Kongress palatalari tomonidan qabul qilinadi);

ikkinchidan, Konstitutsiya maxsus ta'sis etilgan davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. (Xitoy, Mozambik, Vyetnam va Gruziyada alohida ta'sis etilgan Konstitutsion yig'ilish tomonidan);

uchinchidan, Referendum yo'li bilan bevosita xalq tomonidan qabul qilinadi (Fransiya, Belorusiya, Aljir, Shvetsariya va Filippinda).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, xalq manfaatlariga muvofiq tarzda yangi demokratik davlatning vujudga kelishi natijasida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan. Agar unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati tug'lsa, bu masala keng jamoatchilikning fikriga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu haqda Konstitutsiyaning o'zida aniq me'yorlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin 6 oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputat lari va Senat a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoni O'zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi (127-moddada).

O'zini o'zi nazorat qilish savollari

1. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixining rivojlanish necha bosqichidan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqiligining e'lon qilishining zaruriyati nimalardan iborat?
3. O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy komissiya asosiy vazifalari nimalardan iborat edi?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning " Konstitutsiya- haqidagi" fikrini ayting?

6. 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumdan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qanday o'zgartirishlar kiritildi?

III MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING ASOSIY PRINSIPLARI

- 1. Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati**
- 2. Xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirish shakllari**
- 3. O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi va uni amalga oshirilishi**
- 4. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi**
- 5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari va prinsiplari**

1. Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati

"Suverenitet" atamasi ilk bor Fransiyada (XVI) vujudga kelgan. Bu atama lotincha superareitas (cupra, superios) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aslida "eng oliy", "oliy hokimiyat" degan ma'noni anglatadi.

Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi bo'lib, uning to'la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

Suveren davlat o'z ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek xalqaro huquq prinsiplari va normalarini buzmaganda, o'zi xohlagancha hal qiladi.

Suverenitet davlatga xos tushuncha bo'lib, u bilan birga vujudga keladi. Davlat va uning xususiyati bo'lgan suverenitet tarixiy hodisadir.

Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, ya'ni o'z taqdirini chet davlatlarning aralashuviz belgilash huquqi davlat suverenitetning asosini tashkil etadi.

"O'zbekiston - demokratik davlat. Bu insonparvarlik qonunlariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir."^{10[47]}

O'zbekistonda demokratik prinsiplar qaror topmoqda.

O'zbekistonda davlatning boshqarish shakli respublikadir. Respublika – xalq xokimiyati demakdir

2. Xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirish shakllari

"Xalq hokimiyatchiligi" atamasi yunoncha "demokratiya" ("demokratia") so'zining aynan tarjimasi bo'lib, bu ibora ilk bor yunon shahar-davlatida paydo bo'lgan va keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lug'atdan mustahkam o'rin olgan.

Demokratiya so'zi "demos" ("demos") xalq va "kratos" ("kratos") hokimiyat so'zlarining birikmasidan tuzilib, "xalq hokimiyatchiligi" deganidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlangan ikkinchi bobi davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va O'zbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. "Xalq hokimiyatchiligi" prinsipi har qanday demokratik davlat konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida mamlakatimizdagi xalq hokimiyatchiligi prinsipi quyidagicha ochib berilgan:

«Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

3. O'zbekistonda davlat hokimiyat vakolatlarini bo'linishi prinsipi va uni amalga oshirilishi

"Hokimiyatning bo'linishi" g'oyasi qadimiy bo'lib, qadimgi grek faylasufi va olimi Aristotel tomonidan ham ilgari surilgan. O'rta asrlarda Marsiliy Paduanskiy va boshqalar ham bunday g'oyani yoqlab chiqqan edilar. XVIII asrning o'rtalariga kelib, bu g'oya mustaqil

^{10[47]} O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. T., O'zbekiston. 1995. 31-bet.

siyosiy-huquqiy ta'limotga aylangan. Mashhur fransuz ma'rifatparvari, huquqshunos, faylasuf va yozuvchi SH.Monteskye (1689-1755 yillar) o'zining "Qonunlar ruhi" kitobida hokimiyatning bo'linishi prinsipini asoslab bergan. Monteskye fikricha, siyosiy xiyonatlarning bo'lmashligini ta'minlaydigan narsa uch hokimiyatning: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining to'la bo'linishi va bir-birini cheklashidir. O'rta asrlardagi feodal tuzumlarning barham topishi va yangi davrning boshlanishi bilan "hokimiyatning bo'linishi" prinsipi ko'pgina davlatlar konstitutsiyalarining asosiy prinsiplaridan biri deb e'lon qilindi. Bu prinsip birinchi marta buyuk fransuz inqilobining konstitutsiyaviy hujjatlarida o'z ifodasini topdi.

Umuman, "hokimiyatning bo'linishi" nazariyasiga ko'ra, davlat hokimiyati yagona, yaxlit, bir butun deb emas, balki turli hokimiyat (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlarini amalga oshiruvchi hokimiyatlar) funksiyalarining yig'indisi sifatida tushuniladi. Bunday turli funksiyalarni amalga oshiruvchi hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil ravishda harakat qilishlari lozim. Lekin bu uch mustaqil hokimiyat idoralari bir-biriga bog'liq emas, degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldiradi, nazorat qiladi va o'zaro taqozo etadi.

Darhaqiqat, hozirgi zamon jahon mamlakatlarining konstitutsiyaviy tajribasi shuni ko'rsatadiki, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi, ular ushbu prinsip rasman o'rnatilgan yoki o'rnatilmaganligidan qat'i nazar, barcha chet el konstitutsiyalari tomonidan qabul qilingan. Chunonchi, mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasida ham bu prinsip rasman 11-moddada o'rnatilgan. Unga ko'ra, O'zbekistonda qonun chiqarish hokimiyati Oliy Majlis, ijro hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimini tashkil etadi.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati-davlatning uchta asosiy tayanchidir".^{11[53]}

Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlangan bo'limida ana shu uchchala hokimiyat organlarining tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga ularning o'zaro faoliyati va munosabatlari haqida qoidalar ham o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidaga ma'ruzasida ustuvor vazifa qilib "Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishidan iborat"^{12[54]} belgilandi.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi

Konstitutsiya va qonunlar ustunligining ta'minlanishi huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u O'zbekistonda davlat-huquqiy qurilishining eng asosiy prinsipi hamdir. "Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida, unga muvofiq bo'lishi talab etiladi"^{13[57]}.

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi". O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiya davlatimizning eng Asosiy Qonuni ekanligi, u boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqori turishi quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar" (15-modda).

^{11[53]} Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1 – T., O'zbekiston, 1996.–127-bet.

^{12[54]} Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash , mamlakatni modernizatsiya va iloh etishdir. T.: 2005.- 36.

^{13[57]} Karimov I.A. O'sha joyda, 125-bet.

O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar oldida hamma teng darajada mas'uliyatga ega bo'lib, qonunlar ham o'z navbatida barchaga barobardir.

Demokratik huquqiy davlatda Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay amal qilish talabi bilan bir qatorda Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi ham o'rnatilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari va prinsiplari

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topgan.

Asosiy Qonunimizning 17-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlardagi umumiy yo'nalishi o'z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vositalarini qamrab oladi.

"O'zbekiston Respublikasi - xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti" degan konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o'rnini bildiribgina qolmay, mamlakatimizni haqiqatdan ham xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini isbotlaydi.

Bu esa quyidagilarni anglatadi:

birinchidan, O'zbekiston suveren davlat sifatida zamonaviy xalqaro huquq prinsiplari va normalari bilan bog'liq, boshqa majburiyatlar davlatimizning rozilgisiz zimmamizga yuklatilishi mumkin emas;

ikkinchidan, O'zbekiston hududida davlat hokimiyati chegaralanmaydi va xalqaro huquqning hech qaysi bir subyekti bunga aralashish huquqiga ega emas, o'zining hududidan tashqarida u o'z hokimiyatini faqat boshqa manfaatdor davlat roziligi bo'lgandagina amalga oshirishi mumkin;

uchinchidan, O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikkitomonlama va ko'ptomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashadi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekiston 120 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 35ta davlat elchixonasi ochildi, 19ta davlat elchilari esa O'zbekiston Respublikasida o'rindoshlik asosida faoliyat yurgizadi. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akreditatsiyadan o'tgan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatlarga tegishli bo'lmagan tashkilotlar faoliyat olib boradi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi.

2. Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida bildiruvchi huquqiy asoslar yaratildi. Tashqi aloqalar sohasida quyidagi muhim qonunlar qabul qilindi:

1. "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risidagi" Qonun (1996 y);

2. "Diplomatik vakolatxonalar boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to'g'risidagi" Qonun (1992 y);

3. "Diplomatik xodimlarning darajalarini o'rnatish to'g'risidagi Qonun (1992 y);

4. "Xorijiy sarmoyalar to'g'risidagi Qonun (1998 y);

5. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qonun (2000 y);

6. "Xorijiy sarmoyadorlarning faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi Qonuni (1994 y);

7. Konsullik Ustavi (1996 y).

3. O'zbekistonning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlab beruvchi davlat organlari shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi shakllantirildi, xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 260 dan ortiq vakolatxonalari ochildi.

4. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari va prinsiplariga Respublikaning tashqi siyosatni tartibga soluvchi qonunchiligiga, harbiy sohadagi qonunchilikka, BMTning hamda YEHT ning prinsiplari va maqsadlariga, O'zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi. O'zbekiston dunyodagi eng nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi va muhim xalqaro shartnomalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvor holatlardan kelib chiqadi:

birinchidan, o'zining milliy-davlatchilik manfaatlarining ustuvorligi sharoitida o'zaro manfaatlarni to'liq hisobga olish;

ikkinchidan, insonlar va davlatlar orasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda O'zbekiston xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda. O'zbekiston yadro qurolidan ozod hudud bo'lib qoladi, agressiv tabiatdagi harbiy bloklar va ittifoqlarga a'zo bo'lmaydi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni tan oladi va muttasil ularga sodiqlikni isbotlaydi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati o'zaro tinchlik, o'zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydigan prinsiplarga quriladi;

to'rtinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik prinsipini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatmoqda;

beshinchidan, O'zbekiston xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarni hurmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan bo'lgan munosabatlari:

birinchidan, davlatlarning suveren tengligi;

ikkinchidan, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslik;

uchinchidan, chegaralarning daxlsizligi;

to'rtinchidan, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

beshinchidan, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan me'yorlarga asoslanadi.

O'zini -o'zi nazorat qilish savollari

1. 1. "Suverenitet" atamasi ilk bor qaysi davlatda va nechanchi asrda vujudga kelgan hamda qaysi so'zdan olingan?

2. 2. O'zbekistonning davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati qaysi qonun hujjatlarida mustahkamlangan?

3. 3. O'zbekistonning davlat ramzlari qachon qabul qilingan va uning mazmun mohiyatiga qanday ta'rif berilgan?

4. 4. "Demokratiya" so'zi qayerdan kelib chiqqan va u nimani anglatadi?

5. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida demokratiya tushunchasi haqida qanday ta'rif berilgan?

6. 6. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya tushunchasi-ni bilasizmi?

7. 7. Vakillik demokratiyasi nima?

8. 8. To'g'ridan-to'g'ri va vakillik demokratiyasi shakllari O'zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddala-rida o'z aksini topgan?

9. 9. To'g'ridan-to'g'ri va vakillik demokratiyasi shakllari, O'zbekistonning qaysi qonunlari asosida amalga oshirilishi belgilangan?

10. 10. "Referendum" so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

IV MAVZU. INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

REJA

- 1. Shaxs huquqiy maqomi tushunchasi**
- 2. Shaxs huquqiy maqomining prinsiplari**
- 3. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari**
- 4. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlarining konstitutsiyaviy tasniflanishi (klassifikatsiyasi)**

1. Shaxs huquqiy maqomi tushunchasi

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish yo'liga o'tdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, shaxsning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat'iy himoya qilmasdan va amalda ta'minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas. Xalqimizning boy ma'naviy salohiyati, uning tasarrufida bo'lmish ulkan tabiiy boyliklar va texnikaviy imkoniyatlar, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar demokratik rivojlanish hamda inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish imkonini bermoqda.

Shaxsning huquqiy maqomi deganda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda burchlarining majmui tushuniladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari borasida BMTning 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" ifodasini topgan qoidalarni yaxlit mushtaraklikda mujassamlashtirib olgan.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi o'zining ichki va tashqi siyosatida BMTning ikkinchi Umumjahon konferensiyasida 1993-yili tasdiqlangan "Inson huquq va erkinliklarining universalligi" talablariga qat'iy rioya etib, ular himoyasi barcha davlatlarni qonuniy ravishda tashvishlantirib turuvchi muammo ekanligi haqiqatidan kelib chiqadi. Bugun jahonda 300 dan ortiq hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning aksariyatini BMTning xalqaro-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Universal maqomdagi hujjatlardan tashqari, inson huquqlarini ta'minlash va himoyalashning mintaqaviy tizimlari faol shakllantirilmoqda.

Bugungi kunda Yevropa, Amerika va Afrika tizimlari mintaqada inson huquqlarini ta'minlashning ko'proq rivojlangan tizimi hisoblanadi.

"Jamiyatning, davlatning shaxslar bilan bo'ladigan va huquqiy normalar bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlari shaxsning huquqiy holati deb ataladi"^{14[73]}.

Jamiyat va davlatning shaxs bilan munosabatlari Konstitutsiya normalarida o'z ifodasini topadi.

2. Shaxs huquqiy maqomining prinsiplari

^{14[73]} Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.-T.: IIV Akademiyasi, 1997.114b

O'zbekistonda fuqarolar konstitutsiyaviy maqomining asosiy prinsiplari Konstitutsiyaning beshinchi bobida mustahkamlangan. Xususan, Asosiy qonunning 18-moddasida fuqarolarning teng huquqliligi mustahkamlangan.

Teng huquqlilik tushunchasini avvallari sotsialistik ta'limotning mazmuni sifatida ilgari suriladigan *ijtimoiy tenglik* tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Teng huquqlilik - insonlarning huquq, erkinlik va burchlarda o'zaro tengligini anglatadi. Ijtimoiy tenglik esa—ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishda hammaning teng bo'lishini ta'kidlaydi. Ijtimoiy tenglik insoniyat o'z iste'mol ehtiyojiga nisbatan ko'proq tovar ishlab chiqara boshlaganidan buyon hech qachon va hech qayerda mavjud bo'lmagan. Demokratik mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy-iqtisodiy tenglik mavjud bo'lmagan sharoitda ham teng huquqlilik amal qilishi mumkin ekan.

Albatta, kishilarning turli ijtimoiy mavqeini egallashlari orqali ular huquqlarida tenglikni amalga oshirish muayyan muammolarning paydo bo'lishiga olib kelishi muqarrar. Masalan, dastlabki qamoq chorasidan garov, ya'ni muayyan pul miqdori evaziga ozod bo'lish imkoniyatiga nisbatan badavlat kishilar ega, ijtimoiy mavqei past kishilar bunday imkoniyatga ega bo'lmay, ular sud hukmini qamoqda kutishiga to'g'ri keladi. Biroq yetarli mablag' va vositalarsiz kishilar sonining salmog'i o'sha jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi darajasiga bog'liqdir. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, bunday kishilar jamiyatda kam bo'ladi.

Konstitutsiyalar teng huquqlilik tamoyilini turlicha izohlaydilar: gohida *to'g'ridan-to'g'ri* (pozitiv), gohida *ajratishni, kamsitishni man etish* ko'rinishida, ba'zan esa ikki usulni birgalikda qo'llash orqali tushuntiradilar.

Ba'zan ayollar va erkaklar tengligi alohida kafolatlanadi, shuningdek, u yoki bu muayyan holatlaridan qat'iy nazar, tenglik (irqi, millati, kelib chiqishi, terisining rangi va boshqalar) kafolatlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, teng huquqlilik, asosan, inson va fuqaro hayoti uchun eng muhim huquq, erkinlik va burchlarni o'z ichiga olganligi bois ular konstitutsiyalarda kafolatlanadi.

3. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlari tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari

Huquq va erkinliklar o'rtasidagi keskin yuridik farqni ko'rsatish ancha mushkul ish. Umumiy huquqning nazariyasidan bizga ma'lumki, subyektiv huquq bu shaxs yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xulqi chegarasining o'lchovi. Fikrimizcha, bu ta'rif erkinlik tushunchasiga ham mos keladi.

Shu bilan ko'pchilik hollarda, subyektiv huquq haqida gap ketganda, ushbu huquqqa tegishli muayyan burchlar mavjud bo'lib, u huquq subyektlariga ma'lum darajada tegishli bo'ladi.

Masalan, sog'liqni saqlash huquqi e'lon qilinganda, uning tabiatiga ko'ra majburiyat subyektlari sifatida davlat (ayrim hollarda nodavlat) sog'liqni saqlash muassasalari yoki amaliyot bilan shug'ullanuvchi muayyan tibbiyot xodimlari qatnashadilar.

Erkinlik haqida gap ketganda, ushbu erkinlikni rad etish yoki cheklash huquqi hech kimga berilmaganligi ushbu erkinlikni hurmat qilishning majburligi tushuniladi, aks holda tegishli huquqiy javobgarlik mavjud bo'ladi.

Aytaylik, Konstitutsiyada so'z erkinligi berilgan bo'lsa, inson davlatdan ushbu huquq asosida o'z fikrini oshkora qilishiga qarshilik qiluvchi har qanday subyektdan himoya qilishini talab qilish huquqiga ega.

Yuqorida bayon qilingan huquq va erkinlik o'rtasidagi farqlar juda shartli bo'lib, u barcha hollarda ham bir xilda qo'llanilishi mumkin emas.

Masalan, agarda ta'lim berish erkinligi (akademik erkinlik) belgilangan bo'lsa, u holda o'qituvchining bu erkinligini ta'minlash majburiyatining subyekti o'quv yurtining ma'muriyati yoki shu o'quv yurtining homiysi timsolida bo'ladi va ular ta'lim berish erkinligini hurmat qilishlari va kafolatlashlari shart Aks holda ular bu erkinlikni cheklovchilar qatoriga qo'shilib

qolishlari mumkin. Shuni qo'shimcha qilib aytish mumkinki, Anglo-sakson huquq tizimiga kiruvchi mamlakatlardagi qonun chiqaruvchi hokimiyat, odatda, konstitutsiyalarda subyektning pozitiv huquqlarini belgilashdan yoki ushbu huquqlarni sanab o'tishdan ko'ra, tegishli erkinliklarning kafolatlanishini afzal ko'rishi e'tiborga loyiq.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari va ikkinchi tomondan, ularning boshqa kishilar, davlat va jamiyat oldidagi burchlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni inkor qilish xato bo'lar edi. Zero, umumiy huquq nazariyasidan bizga ma'lumki, burch bu xulqning zaruriy me'yori hisoblanadi. Inson muayyan qoidalarga rioya qilishi kerakki, u o'zining huquq va erkinliklaridan foydalanganida, boshqa kishilarga asossiz ravishda ziyon yetkazmasligi va jamiyatning normal hayot kechirishiga to'sqinlik qilmasligi lozim. Konstitutsiyalar hayotiyligini ta'min-lanishining zaruriy sharti-o'z mazmuni va mohiyatini inson va fuqarolar huquq-erkinliklari bilan boyitilishida ifodalanadi.

Yuridik adabiyotlarda inson huquqlarining ajralmas ekanligi takidlanib, uning mavjudligi tegishli burchlarni bajaraslikka yoki bajarishga bog'liq emas, degan qarashlar mavjud. Fuqarolarning huquqlari esa davlat oldida qator burch va majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq, deb ko'rsatiladi. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, shaxsning armiyada xizmat qilmaganligini ro'kach qilib, uni saylov huquqidan mahrum qilish mumkin emas.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: har qanday huquq va erkinliklarni amalga oshirishni muayyan burchni bajarish bilan bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Shu bilan bir vaqtda, inson va fuqarolarning o'z burchlarini bajarishi davlat va jamiyatning normal hayot kechirishi umumiy omil hisoblanadi va nihoyat, shuni qayd qilish kerakki, konstitutsiyaviy burchlar ikki qirraligi, ya'ni insonlarning muayyan burchlari va fuqarolarning burchlari bilan ajralib turadi.

Huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy ifodalanishining ikki usuli – pozitiv va negativ usullari mavjud:

a) pozitiv usulda, konstitutsiya subyektning muayyan huquqqa egaligini belgilaydi yoki ta'kidlaydi;

b) negativ usul shunday ifodalanadiki, unga ko'ra har qanday subyektga o'zga subyektning huquq yoki muayyan erkinligini buzish yoki cheklash ta'qiqlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik va burchlarining konstitutsiyaviy tasniflanishi (klassifikatsiyasi)

Tasniflash turli xil maqsadlarda va asoslarda o'tkazilishi mumkin. Biroq shuni yodda tutish kerakki, guruhlashtirish shartli ravishda kechadi, chunki ko'p hollarda biror huquq yoki erkinlik yohud burch bir paytda ikki yoki undan ko'p tasnifiy guruhlariga tegishli bo'lishi mumkin. Ular quyida taklif etilayotgan tasniflashtirishda o'zlarining asosiy mazmunlari jihatidan yaqin bo'lgan guruhlariga kiritiladi. Masalan, vijdon erkinligi shaxsiy erkinliklar turkumiga kiradi, ayrim mamlakatlarda esa, u aniq ifodalangan siyosiy xarakter tusini oladi.

Tasniflashtirishning biri bilan biz yuqorida tanishib chiqdik: ya'ni huquqlarni inson huquqlari va fuqarolarning huquqlariga ajratish.

Tasniflashtirishning yana bir ko'rinishi huquq, erkinlik va burch subyektlarining xarakteri bilan bog'liq asosda amalga oshirishdir. Bunda huquq, erkinlik va burchlarni *individual* va *jamo*a(kollektiv) turlariga ajratish mumkin.

To'g'ri, individual huquq ko'p hollarda jamoa shaklida ham amalga oshirilishi mumkin. Ammo u jamoa huquqidan farqli ravishda, odatda individual tarzda amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin. Jamoa huquqini esa uning mohiyatiga ko'ra individual tarzda amalga oshirish mumkin emas.

Masalan, ish tashlash huquqi – jamoa huquqidir. Individual tartibda ish tashlash – ish tashlash hisoblanmasdan, balki u ishga kelmaslik deb baholanishi mumkin.

Ko'pchilik hollarda huquq, erkinlik va burchlar o'z xarakteriga ko'ra individualdir. Biroq bu holat konstitutsiyada doimo aniq va ravshan qilib belgilanmaydi.

Bulardan tashqari huquq, erkinlik va burchlarni, *asosiy va qo`shimcha* turlarga ajratish mumkin. Masalan, davlatni boshqarishda ishtirok etish asosiy huquq hisoblansa, saylov huquqi undagi hosila huquq bo`lib, uning mazmunini ifodalash shakli hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha huquq, erkinlik va burchlarning mazmuni va mohiyati bo`yicha tasniflash juda muhim ahamiyatga ega.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va burchlarining keyingi joylashuvi tegishli huquq, erkinlik va burchlarning mazmuniga asosan mustahkamlab qo`yilgan:

- 1)1) shaxsiy huquq va erkinliklar;
- 2)2) siyosiy huquqlar;
- 3)3) iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar;
- 4)4) fuqarolarning burchlari.

Yuridik adabiyotlarda inson huquqlarini boshqa mezonlar asosida ham tasniflash uchraydi.

Fuqarolik deganda jismoniy shaxsning ma`lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog`lanishiga aytiladi. Bunda fuqaroning tegishli davlatga nisbatan huquq va burchlari hamda uning suveren davlat tomonidan himoya qilinishida ifodalanadi.

Ilk bor "fuqaro" atamasi Fransuz revolyutsiyasining 1799- yildagi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"da bayon etilgan.

1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari to`g`risidagi Umumjahon Deklaratsiyasiga binoan, har bir kishi tabiiy, ajralmas, daxlsiz huquq va erkinliklarga egadir. Barcha davlat idoralari inson huquqlari va erkinliklarini oliy ijtimoiy qadriyatlari, deb bilib, ularni ta`minlashga va muhofaza qilishga majburlar.

O`zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko`ra O`zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o`rnatiladi.

O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo`lganligidan qat`i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog`iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O`zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaro tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa kishilarning huquqlariga zid bo`lmasligi lozim. Har bir kishi Konstitutsiyada belgilangan vazifalarni bajaradi, jamiyatning normal rivojlanishi uchun shu vazifalar bajarilishi zarur.

Konstitutsiyaning qoidalari bevosita amal qiladi va barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Konstitutsiyada mustahkamlab berilgan barcha huquqlar va erkinliklar sud yo`li bilan himoya qilinishi lozim.

Shaxs va jamiyatning o`zaro mas`uliyati - huquqiy davlatning ajralmas belgisidir. Nodemokratik davlatda faqat fuqaroning davlat oldidagi mas`uliyati tan olinadi. U go`yo fuqaroga huquq va erkinlik berayotganday bo`ladi va uning maqomini tayinlaydi. Huquqiy davlatda esa buning aksini ko`ramiz. Bu yerda davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar qoshida ularning huquq va erkinliklari uchun mas`ulligi masalasiga e`tibor qaratiladi. Bu mas`uliyat fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishida aybdor bo`lgan mansabdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta`minlaydigan va keskin jazo choralari ko`rilishini ko`zda tutadigan tegishli me`yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo`lgan sharoitdagina amaliy tus kasb etadi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilmasligining muhim kafolati konstitutsiyaviy qoida bo`lib, unga binoan davlatning hokimiyat tuzilmalari har bir kishiga uning huquq va erkinliklariga bevosita tegishli bo`lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishishni ta`minlashga majbur. Huquqiy davlatda har bir fuqaroning o`z huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqi tan olinadi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992- yil 2- iyulda "O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi to`g`risida"gi Qonunida fuqarolik masalalari, uning huquqiy holati qonun yo`li bilan mustahkamlangan.

O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi bu aloqa ularning o`zaro huquq va burchlarida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi o'z idoralari va mansabdor shaxslari orqali fuqarolar oldida mas'uldirlar, fuqaro esa davlat oldida mas'uldir.

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida o'z fuqarolarining huquq, erkinliklarini va manfaatlarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari fuqarolikni olish asoslaridan qat'iy nazar barcha uchun tengdir.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi, millati, jinsi, ma'lumoti, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan, mashg'ulotining turidan hamda boshqa holatlardan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ta'minlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni bir paytda O'zbekiston Respublikasining ham fuqarosidir.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar:

1. Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodidan, mashg'ulotining turi va saviyasidan qat'iy nazar, ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar:

2. Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarisida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lsalar va ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar:

3. O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi bilan yohud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tishi, shuningdek bunday nikohning bekor qilinishi er yoki xotinning fuqaroligini to'xtatilishiga olib kelmaydi.

Konstitutsiyaning 22-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida har bir shaxs fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasida shunday degan edi: "Shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlarini va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi".^{15[74]}

Fuqarolikni qabul qilish, o'zgartirish va yo'qotish alohida davlatlarning ichki qonunchiligi – Konstitutsiyalar, fuqarolik qonunlari va qonunchilik aktlari asosida amalga oshiriladi.

^{15[74]} I.A.Karimov. Buyuk kelajagimizning suquqiy kafolati. T., "Sharq", 1993, 9-bet.

Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) naturalizatsiya yo'li bilan, xalqaro shartnoma asosida va ayrim hollarda - reintegratsiya (tiklanish) orqali va taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolikni qabul qilishning asosiy yo'li tug'ilish orqali kelib chiqadi, qolgan barcha usullari kam uchraydi. Sababi ko'p kishilar tug'ilishi bilan fuqarolikni qabul qilib, o'z umri davomida uni o'zgartirmaydi.

Tug'ilish bo'yicha fuqarolikka ega bo'lish 2 ta asosiy shaklga ega:

"Qon huquqi" (jus sanguinus) asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug'ilgan joyiga bog'lanmaydi. Bu maqsadga Yevropaning ko'p mamlakatlari, jumladan - Avstriya, Norvegiya, Finlandiya, Italiya va boshqalar amal qiladi.

"Zamin huquqi" (jus soli) asosiga ko'ra, fuqarolik chaqaloqning tug'ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, Braziliya qonunchiligida belgilanishicha, bu davlat hududida tug'ilgan har bir shaxs Braziliya fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikni qabul qilishning usullaridan biri naturalizatsiya (fuqarolikni qabul qilish) bo'lib, bu umuman fuqaroligi bo'lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo'lgan shaxs tomonidan fuqarolik olinishidir. Naturalizatsiya tartibda fuqarolik quyidagi hollarda qabul qilinadi:

a) fuqaroligi bo'lmagan yoki fuqaroligini o'zgartirmoqchi bo'lgan shaxs so'rovdan so'ngi asosan;

b) bir davlat fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikohdan o'tishi asosida;

v) fuqaroligi bo'lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda.

Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yoki rad etish davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalar bilan belgilanadi. Naturalizatsiya asosida fuqarolikni berish yakka tartibda yoki manfaatdor shaxs (farzandlikka olishda) roziligi bilan amalga oshadi.

Barcha mamlakatlarning qonunchiligi bir qator cheklanishlarga ega bo'lib, ular asosida shaxslarga siyosiy, ijtimoiy, diniy, milliy va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda naturalizatsiyada rad etiladi.

Ko'pchilik davlatlarda uzoq vaqt xotin erining fuqaroligiga qabul qilindi degan tushuncha yuqori o'rinni egallab kelgan. Hozirgi paytda ko'pgina davlatlar qonunchiligi belgilashicha, ayol chet ellik shaxsga turmushga chiqayotib, o'z fuqaroligini saqlab qolishi yoki o'z istagi bilan naturalizatsiya tartibida erining fuqaroligini qabul qilishi mumkin. Bu tartib umumiy jihatdan qabul qilinib, turmushga chiqqan ayollarning fuqaroligi haqidagi 1957 yildagi Konvensiyada hamda ayollarni har tomonlama ta'qib etilishini bartaraf etish bo'yicha 1979 yil Konvensiyasida belgilab o'tilgan.

Reintegratsiya (dastlabki fuqarolikni tiklash) kam uchraydi. Qoida bo'yicha reintegratsiya jarayonida soddalashtirilgan tartibdagi fuqarolikni qabul qilish tartibi qo'llaniladi.

Xalqaro shartnomalar asosida fuqarolik qabul qilish va o'zgartirish ko'pincha bunday holatlar tinchlik haqidagi shartnomalar, reatriatsiya haqida kelishuvlar, hududiy masalalardagi kelishuvlar vaqtida bo'ladi. Bu usul bir necha davlatlarning birlashishi bilan bog'liq holda yangi davlat tarkib topishi yoki bir davlat bo'linishi natijasida bir necha davlatlar tuzilishida, bir qism hududning bir davlatda boshqa davlat tasarrufiga o'tishi (sessiya), shuningdek qo'shni davlatlar o'rtasida alohida hududlarning almashuvi chog'ida amalga oshiriladi.

Hududiy o'zgarishlar vaqtida ko'ngilli ravishda fuqarolik tanlash (optatsiya), o'zgartirish (ko'chirish vaqtida), avtomatik tarzda fuqarolikning o'zgarishi (transfert) bo'lishi mumkin. Transfert vaqtida bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud aholisining, xohishidan qat'iy nazar, bir davlatdan ikkinchisiga o'tar edi. Transfert kam uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentabridagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi "Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga" qo'shildi. Bu hujjatga asosan O'zbekiston Respublikasi konsullik tashkilotlari chet davlatlarda O'zbekiston fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

- 1) tug'ilganda;
- 2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;

3) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha;

4) Fuqarolik to'g'risidagi Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

Tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, O'zbekiston Respublikasi hududida yohud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

1) agar u O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;

2) agar u O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsayu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan bo'lsa, agar bu vaqtda ota-ona O'zbekistondan tashqarida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bolaning fuqaroligi ota-onasining yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan yohud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Onasining fuqaroligi bo'lmagan bolaning otasi belgilanib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lsa, 14 yoshga yetmagan bola, qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimoslariga ko'ra ushbu Qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat:

1) chet el fuqarolidan voz kechish;

2) so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, boshqasi ular shu yerda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo'lmaydi;

3) qonuniy tirikchilik manbaalarining mavjudligi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Bu talablar alohida hollardagina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yohud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin.

Agar shaxs:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik ishlatib o'zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo'lsa;

faoliyati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lgan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq ozodliqdan mahrum etilgan va jazoni o'tayotgan bo'lsa, uni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimonomasi rad etiladi.

Ilgari O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan shaxs o'z iltimosiga binoan ushbu Qonun talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;
2. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;
3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga

binoan;

4. Ushbu Qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini to'xtatilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqaroligining to'xtatilishiga sabab bo'ladi.

Fuqarolik to'g'risidagi Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruhsat etiladi. Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yohud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlarini bilan bog'liq mulkiy majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yohud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zurur bo'lgan sud hukmi bo'lsa yoki shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariga zid bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotiladi:

- 1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, militsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

- 2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;

- 3) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki sohta xujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi. Ota-onalarining fuqaroligi o'zgarganligi natijasida ularning har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga o'tganda yoki har ikkalasi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqqanda, o'z navbatida ularning 14 yoshga to'lmagan bolalarining fuqaroligi ham o'zgaradi.

Agar bolaning ota-onasidan biri ma'lum bo'lsa, ana shu ota yoki onaning fuqaroligi o'zgarganida 14 yoshga to'lmagan bolaning fuqaroligi ham tegishli suratda o'zgaradi. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bolaning ota-onasi yoki yolg'iz otasi yo onasi bo'lmasa O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsalar va ayni bir paytda ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vasiylikka yoki homiylikka olgan bolaning tarbiyasida ishtirok etmasalar, ota-ona, vasiy yoki homiyni iltimosiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi chet el fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosnomasiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylansa, boshqasi esa fuqaroligi shaxs bo'lib qolaversa, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olayotgan ota yoki onaning iltimosiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi mumkin.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan ota yoki onaning iltimosiga ko'ra bunday bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga ruxsat etilishi mumkin.

Chet el fuqarosi yohud fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzadlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi. Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzadlikka olinayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi. Chet el fuqarosi bo'lib, biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka oluvchilarning kelishuviga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olingan yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi chet el fuqarosi bo'lgan er-xotin tomonidan farzadlikka olingan bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi. Farzandlikka oluvchilarning iltimosnomasiga ko'ra bunday bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga ruxsat berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, bolani fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan farzandlikka olingan yoki biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan er-xotin tomonidan farzandlikka olingan bola O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini saqlab qoladi

Ota-onalarning fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek bolalar farzandlikka olingan taqdirda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi Fuqarolik to'g'risidagi Qonunning 34-moddasida ko'zda tutilgan tartibda faqat bolalarning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari.^{16[75]}

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalariga oid vakolatlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;

2. Chet elda yashayotgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda ularni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida;

3. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida;

4. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning tegishli idoralarga berilgan vakolatlari:

1) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarni asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

^{16[75]} O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi. Qonun va farmonlar. T., 1992, 35-bet.

3) fuqarolik masalalariga doir arizani zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo'yicha komissiyaga yo'llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) Chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligini qayd etadi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari:

1) chet ellarda doimiy yashab turgan shaxslardan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizalarni zarur hujjatlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo'yicha Komissiyaga yo'llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligini qayd etadi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

Fuqarolik masalalariga oid arizalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza beruvchilarning doimiy istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralari orqali, chet elda doimiy yashovchi shaxslar tomonidan esa O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari orqali topshiriladi.^{17[76]}

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari tushunchasi

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ikki ko'rinishiga ega: davlatning o'z ichki kafolatlari va xalqaro huquqiy kafolatlar. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari institutlari sirasiga tobora ahamiyati oshib borayotgan Ombudsman ya'ni, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakilini va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini kiritish mumkin.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari malakali yuridik xizmat va malakali himoyachi (advokat) xizmatidan to'liq ravishda konstitutsiyaviy, jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy ishlarda foydalanish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida aniq ifodalangan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 43-moddasida "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi",-deyilgan.

Ushbu modda Konstitutsiyaviy prinsiplarning asosi, o'zagi, xarakterini ifodalagan bo'lib, unda inson manfaatlariga xizmat qilish, erkinlik kafolati, davlatning ijtimoiy maqsadi va asl g'oyasi aks etgan.

Mustaqillikka erishilgach, O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va demokratik jamiyat qurish yo'ldan borishda inson erkinligiga, jamiyat va davlatning birligida insonning tutgan o'rnini yuksak baholashga katta ahamiyat berildi. Demokratik davlatda jamiyat a'zolari huquq va erkinliklarining kafolatlari doimiy harakatdagi mexanizm singari bo'lmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmunida davlat fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlashga, jamiyat uchun xizmat qilishga butun kuchini safarbar etishi lozimligi haqidagi g'oyalar mavjud.

^{17[76]} O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonun. 23-modda.

Konstitutsiyaning 19-moddasida "hech kim sud qarorisiz fuqarolarni huquq va erkinliklaridan mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga haqli emas" deyilgan. Bu esa agar javobgar bo'lsa, hattoki, davlat organlarini ham sud-huquqiy javobgarlikka tortish mumkinligini bildiradi. Kafolat tizimida iqtisodiy omil katta ahamiyatga egadir. Sababi iqtisodiy hayot qanchalik farovon bo'lsa, huquqning amaldagi kafolat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bularning barchasi davlatning asosiy qonuni bilan belgilanadi va kafolatlanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarining yuridik kafolatlari

O'zbekistonda "Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi." (Konstitutsiyaning 44-moddasi).

Bu konstitutsiyaviy qoidaninng asosiy mohiyati shundaki, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganda, u sud orqali himoya qilinadi. Insonlarga tegishli huquq va erkinliklar ko'p qirrali xususiyatga egadir. Shaxsiy huquq va erkinliklar turkumiga misol uchun yashash huquqi, erkinlik huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi kabilar kiradi.

Inson huquqlari va erkinliklarining ijtimoiy kafolatlari

O'zbekistonda voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidir

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng, yangi iqtisodiy sharoitga o'tish davrida ijtimoiy himoya qilish dasturini yaratdi. Davlat asosiy bosh islohotchi sifatida tanilgani bois asosiy ijtimoiy himoya mexanizmlari ham davlat tomonidan yaratilishi o'z vaqtida samara bera boshladi. Bu ijtimoiy siyosatda mamlakat aholisining eng muhtoj qatlamlariga katta e'tibor berilmoqda. Bu Konstitutsiyaning 45-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat o'z manfaatlaridan kelib chiqib, ana shu qatlam himoyasini o'z bo'yniga olgan. Bu esa Konstitutsiya orqali fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlanishining amaliy ifodasidir.

Konstitutsiyaga muvofiq, erkak va xotin-qizlar teng huquqlidirlar.

Bu esa jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatda fuqarolarning jinsidan qat'iy nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi. Shuningdek, ularning hayotiy munosabatlarini tartibga soladi. Bular barchasining huquqiy tartibga solinishi g'oyatda ahamiyatlidir. Aks holda, bu yozilgan chiroyli so'zlar qog'ozda qolib ketishi mumkin. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qonunida maxsus bob shaxs erkinligi va huquqining kafolati mavzusiga bag'ishlangan.

O'zini -o'zi nazorat qilish savollari

1. "Kafolat" deganda nima tushuniladi?
2. Inson huquq va erkinliklarining yuridik kafolatlariga nimalar kiradi?
3. Inson huquq va erkinliklarining ijtimoiy kafolatlariga nimalar kiradi?
4. Davlat inson huquq va erkinliklarining kafolati sifatidagi vazifalari nimalardan iborat?
5. Sud hokimiyatining inson va fuqaro huquq va erkinliklari ta'minlashda o'rnini ayting?

V M A V Z U . O`ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS O`ZARO MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI REJA

1. Fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari
2. Konstitutsiya va jamiyatning iqtisodiy negizlari
3. Jamoat birlashmalarining jamiyatda tutgan o`rni
4. O`zbekistonda oilaning konstitutsiyaviy maqomi

Fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida muazzam umuminsoniy qadriyatlar teran ifodasini topdi. Unda o`zbek davlatchiligi rivojlanishining tarixiy tajribasiga tayanib, insonparvar, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish bo`yicha muhim vazifa belgilandi.

Bugun O`zbekiston xalqi ulug` ajdodlarining an`analarini, urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o`z qo`liga olib, qaddini rostlab, el-yurtimizda osoyishtalik, barqarorlikni, millatlararo ahillikni va fuqarolarning totuvligini asrab-avaylab ya'ni tarixiy sharoitda o`z kelajagini qurmoqda, milliy davlatchiligini tiklamoqda^{18[80]}. O`zbekiston Respublikasida insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish muhim maqsadli vazifalardan biri bo`lib, u xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari asosida, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy davlat qurishdagi tajribalaridan yetarli me'yorda foydalanilib, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlangan holda amalga oshiriladi.

Rivojlangan fuqarolik jamiyati bo`lmagan joyda davlat va shaxs ziddiyati o`zaro huquq va majburiyatlarni biroz tenglashtirish to`g`risida gap ham bo`lishi mumkin emas. Qolaversa, huquqiy davlatni ham rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo`naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir^{19[81]}.

Biz fuqarolik jamiyatini kengroq tasavvur etadigan bo`lsak, demokratiya, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kabi tushunchalarni bu hodisaning belgilovchi kategoriyalari deyish mumkin. Islohotlarning amaliyotdagi tadbiqu ana shu tushunchalarning nazariy ishlanmalariga asoslanadi.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlatning negizi, bosh zaminidir. Fuqarolik jamiyatining mohiyati jamiyat va davlat bajaradigan vazifalar tizimining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Faqat keng siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy huquqlarga ega bo`lgan shaxsgina fuqarolik jamiyatini rivojlantirishi, binobarin, uning rivojlanish omili bo`lishi mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatining ayrim tamoyillari o`tmishda o`tgan Sharqning buyuk mutafakkirlarimizning siyosiy-huquqiy qarashlarida o`z ifodasini topgan. Ularning siyosiy-huquqiy konsepsiyasi huquqning siyosiy tartibotlardan ustunligi haqidagi g`oya bilan yo`g`rilgan. Bu borada IX-XI asrlarning Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari mutafakkirlari, faylasuflari, umuman, taraqqiyparvar allomalarining g`oyalari alohida qiziqish uyg`otadi.

Ularning fikricha, bunday davlatning asosiy vazifasi o`z fuqarolarining moddiy ahvolini yaxshilash, tarbiyalash haqida g`amxo`r bo`lish, adolat o`rnatish, xalqni ma`rifatli qilish, ezgulik va yuksak ma`naviyatni tarqatish, o`z fuqarolarining hayoti, sog`ligi, sha`ni, qadr-qimmatini, mol-mulkini muhofaza etish, fan rivoji uchun sharoit yaratish, tartibot va qonunchilikni ta'minlash, lavozimli shaxslar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va hokazolardan iborat.

Fuqarolik jamiyati - kishilar o`rtasidagi obyektiv, o`zaro zaruriy ta'sir doirasi bo`lib, unda huquq hamda qonun ustuvorligi asosida kishi bir vaqtning o`zida boshqa kishilarning maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilish barobarida, o`z manfaatlarini amalga oshiradi. Fuqarolik holatini birdamlikning ijtimoiy mexanizmlarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Zero, ular inson va jamiyat munosabatlarini uyg`unlashtiradi. Binobarin, jamiyat - guruhning barcha a'zolari uchun mushtarak bo`lgan diniy e'tiqod hamda his-tuyg`ularning uyushgan majmuasi

^{18[80]} Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 tom. T. "O`zbekiston", 1996, 92 - bet.

^{19[81]} Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. - T. Sharq. 1998. 49 - bet.

hamdirki, u jamoaviylikning mohiyatini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u - ijtimoiy munosabatlar orqali birlashgan turli ijtimoiy vazifalar tizimidir.

Konstitutsiya va jamiyatning iqtisodiy negizlari

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mulkchilik shakllari o'zgarishi bilan, insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari sohasida butunlay tub o'zgarishlar yasaldi.

Mamlakatimizda borpo etilayotgan fuqarolik jamiyatida inson huquq va erkinliklari alohida e'tirof etilgan bo'lib, Konstitutsiyaning 36-39 moddalarida uning iqtisodiy huquqlari belgilanib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi. Jumladan Konstitutsiyaning 36-moddasida "har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" ekanligi, ya'ni har bir inson dunyoga kelishi bilan, ba'zi hollarda ona qornidaligidayoq ma'lum miqdorda mulk huquqiga ega bo'lishi va vafot etgunga qadar bu huquq uning mutloq huquqi ekanligi konstitutsiyaviy norma tarzida mustahkamlangan.

Mulkka egalik huquqi, ishsizlikdan himoyalaniş huquqi, mehnatning oqilona shart-sharoitlariga ega bo'lish huquqi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi va boshqalar Konstitutsiyamizda ilk bor mustahkamlandi. Boshqa huquq va erkinliklar (mehnat, ta'lim olish, ijtimoiy ta'minot huquqlari, ilmiy texnika, ijod erkinligi va boshqalar) hozirgi zamon va kelajakni hisobga olgan holda mazmunan boyitildi.

Insonning iqtisodiy huquqlari qonun hujjatlarida mustahkamlanib, mulkchilik munosabatlariga alohida e'tibor berildi. Shuning uchun mulkka bo'lgan huquq nafaqat Konstitutsiyaning 36, 53, 54-moddasida, balki Fuqarolik Kodeksida^{20[83]}, "Mulkchilik to'g'risida"^{21[84]}gi, "Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining "Jamiyatning iqtisodiy negizlari"ga bag'ishlangan XII bobining 53-moddasida mamlakat iqtisodiy asosini tashkil etuvchi "bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllaridagi mulk tashkil etishi, davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi" kafolatlanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy norma belgilanib, u o'z o'rnida mamlakat iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, ya'ni u biror bir nomoddiy, moddiy ne'matga egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf qilishga haqli.

Mulk shakllari, ularning obyektlari, subyektlari va muhofaza qilinishining konstitutsiyaviy asoslari

Jamiyatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq edi. Zero, hech qaysi bir jamiyatni mulkchilik munosabatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyat iqtisodiy tarraqqiyotining asosini tashkil etuvchi mulk - tabiat boyliklarini, ishlab chiqarish vositalarini hamda ishlab chiqarish faoliyati natijalarini muayyan shaxslar yoki ularning jamoalari tomonidan ijtimoiy o'zlashtirishga asoslangan shaxslar o'rtasidagi munosabatlar natijasi bo'lib, bunda biror mol-mulkning kimga tegishligi aniq belgilab qo'yiladi. Biz yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi ham mana shu mulk asosida, unga nisbatan mulk huquqining kimga tegishli ekanligi bilan belgilanadi.

Mulk huquqining obyektlari: yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot do'nyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari bo'ladi.

^{20[83]} O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T Adolat, 1996, 558 b.

^{21[84]} O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni. (O'zbekiston Oliy Sovetining Vedomostlari, 1990 yil, 31-33 son, 371-modda; 1993, 7 may, 48-modda;)

O'zbekiston Respublikasida xususiy va ommaviy mulk mustahkamlangan.

Xususiy mulk: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mulkchilikka bag'ishlangan normalar dastlabki yo'nalish beruvchi prinsip bo'lganligi uchun mulkchilik to'g'risidagi bir butun kompleks qoidalar Fuqarolik kodeksi va "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Xususiy mulk haqida ko'rsatilib, u boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin" deb belgilangan. Xususiy mulkning Asosiy qonunda mustahkamlanishi, uning bozor munosabatlarida huquqiy tartibga solinishini belgilaydi, hamda uni boshqa mulk shakllari bilan teng sharoitlarda himoya qilinishini kafolatlaydi.

Asosiy Qonunda xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi belgilangan ilk kunlarda ko'pchilik bu qoida mazmunini tushuna olmadilar. Chunki, oldin ishbilarmonlik, tadbirkorlik yo'li bilan topilgan har qanday daromad mehnatsiz foyda hisoblanib, fuqarolardan tortib olinib, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati jinoyat deb hisoblangan. Endilikda "...biz ko'p ukkladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga beriladi"^{22[89]}.

Xususiy mulkning mazmunini tashkil etuvchi norma "Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir" degan qoida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 207-moddasi belgilangan. Ya'ni meros tariqasida, ishlab chiqarishda o'z mehnati bilan shaxsan ishtirok etish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, bitimlar tuzish, yollanma mehnatdan foydalanish tartibida hamda qonunda ta'qiqlab qo'yilmagan boshqa asoslarda olgan huquqidir.

Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslardir.

Xususiy mulk huquqining obyektlari doirasi juda keng bo'lib, ular: uy-joylar, xonadonlar, dala hovlilar, ekinlar, hayvon va parrandalar, uy-ro'zg'or buyumlari; aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar; ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskuna, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalari; ixtirolar, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalar va intellektual faliyatning (mulkning) boshqa natijalari; iste'mol qilishga va ishlab chiqarishga mo'ljallangan har qanday mol-mulk qonunlarga muvofiq, xususiy mulk bo'lishi mumkin, ayrim mol-mulk turlari bundan mustasno. Ushbu obyektlar xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga ham, yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Ommaviy mulk: Ommaviy mulk tarkibiga quydagilar kiradi: O'zbekiston mulki; ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki.

O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan mulk shakllarining asosiy turlaridan biri O'zbekiston Respublikasi davlat mulkidir.

O'zbekiston Respublikasi halqi davlat mulkning subyektidir. Mulkiy huquqni xalq nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi organlari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining mutloq mulkiga: yer (qonun hujatlarida nazarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda mulk qilib berilgan yerlardan tashqari) yer osti boyliklari, ichki suvlar, jumhuriyat hududi doirasidagi havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosidan iborat. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va idora organlarining mol-mulki: respublika xalqlarining madaniy va tarixiy boyliklari: respublika budjetining mablag'lari, respublika va davlat ahamiyatidagi banklar, sug'urta zahira fondlari va boshqa davlat fondlari: davlat ahamiyatiga molik korxonalar, davlat oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari

^{22[89]} I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T. "O'zbekiston" 1997, 197-bet.

hamda davlatning respublika istiqbolini va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi boshqa mol-mulk kiradi.

O'zbekiston Respublikasida mulkning yana bir shakli bu **aralash mulk** sanaladi. Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 27-moddasiga muvofiq, "Mulkning aralash shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissa qo'shib ishtirok etish prinsipi asosida ham, shuningdek, o'z mablag'larini birlashtirgan mulkdorlar o'rtasida daromadlarni bir tekis taqsimlash va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirilishi mumkin".

Undan tashqari, aralash mulkka qo'shma korxonalarining ham mulki kirishi mumkin. Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning yuridik hamda jismoniy shaxslari ishtirokidagi qo'shma korxonalar O'zbekiston Respublikasi xududida ho'jalik jamiyatlari va shirkatlari shaklida barpo etilib, ular ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur mol-mulkka egalik qilishlari mumkin".

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning subyekti sifatida o'z hududida davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarning mulki ham vujudga kelishiga yo'l qo'yadi va ularning teng muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Bu shakldagi mulklar turiga chet el fuqarolarining mulki kiradi. Chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi hududidagi mulklariga egalik qilish huquqi beriladi. Davlat bu mulkning daxlsizligini va boshqa davlatlarga erkin o'tkazilishini kafolatlaydi. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi islohotlar shu kafolatlar mavjud ekanligidan kelib chiqib olib borilmoqda^{23[90]}.

Chet el yuridik shaxslari ham O'zbekiston hududida xo'jalik faoliyatlari va respublika qonunlarida man etilmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan o'z mulklariga ega bo'lishlariga haqlidirlar. Chet el yuridik shaxslarining mulki davlat tamonidan muhofaza etiladi.

Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham O'zbekiston hududida xalqaro shartnomalarida, O'zbekiston qonun hujjatlarida belgilangan tartibda diplomatik, konsullik, ijtimoiy-madaniy, xayriya va boshqa halqaro munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur mol-mulkka egalik qilishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining jamiyatda tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan. Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro'yxatga olinishi kabi normalar o'z ifodasini topgan.

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi hisoblanadi.

^{23[90]} O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning iqtisodiy islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashda so'zlagan no'tqi. Xalq so'zi. 2000 yil. 2 fevral.

Jamoat birlashmalari ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. “Jamoat birlashmalari to’g’risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko’ra, “Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro’yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasbkor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma’rifiy, fizkultura-sog’lomlashtirish va sport ishlarini o’tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarni muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o’rtasida tinchlik va do’slikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi”.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e’tibor berish kerak bo’ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarining shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g’oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi-jamiyatni takomillashtirish. Ular o’z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo’ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo’nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o’zlariga o’zlari yordam berishlari, o’z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalarining faoliyat ko’rsatishi quyidagi holatlarda yo’l qo’yilmaydi: axloq-odob qoidalarini buzilishiga olib kelsa, noqonuniy maqsadi bilan konstitutsiyaviy tuzumni o’zgartirishga; respublika hududi va birligini bo’lib tashlashga; Qoraqalpog’iston Respublikasi va O’zbekiston Respublikasi o’rtasidagi aloqalarni buzish uchun tashviqot olib borsa; zo’rlilik, vaxshiylik, ijtimoiy kelishmovchilikni tashkillashtirish uchun tashviqotlar olib borishsa; turli, millatlar o’rtasida bir millatni yuqori qo’yish evaziga kelishmovchilik keltirib chiqarsa va jamiyatni bo’lib tashlash uchun dinga qarshi tashviqot olib borsa; xarbiylashtirilgan birlashmalarni tashkil qilish hamda, diniy partiya xarakterida bo’lgan boshqa davlat tuzilmasidagi diniy partiya filiallarini tuzish qonunchilikda qat’iyan man qilinadi. Shuningdek, jamoat birlashmalari demokratiyaga qarshi, davlat hokimiyati va boshqaruvida o’z vakillarini qonuniy qo’yish yo’li bilan hokimiyat vakolatiga ega bo’lib qonunlarni ma’naviy kuch bilan qabul qildirish va davlatning demokratik yo’lidan foydalanib, davlat hokimiyati va boshqaruvida o’z organlarini tashkil qilish qat’iyan man qilinadi.

Jamoat birlashmalarining tashkil topish faoliyat tamoyillari Konstitutsiyaning XIII bobi bo’limida mukammal yoritilgan.

Jamoat birlashmalarining boshqaruv apparati o’zlari to’g’risidagi qonun va mehnat haqidagi qonunlari asosida, shuning bilan ijtimoiy ta’minot va fuqarolarning ijtimoiy sug’urta haqidagi qonunlarda mukammal tashkil topish tartibi qoidalari va ular faoliyatini yo’nalishlari berilgan.

Jamoat birlashmalari tizimiga quyidagilar kiradi:

- 1) 1) *siyosiy partiyalar;*
- 2) 2) *ommaviy harakatlar;*
- 3) 3) *kasaba uyushmalari;*
- 4) 4) *xotin-qizlar jamiyatlari;*
- 5) 5) *yoshlar va bolalar tashkilotlari;*
- 6) 6) *fahriylar va nogironlar tashkilotlari;*
- 7) 7) *ilmiy-texnikaviy;*
- 8) 8) *madaniy-ma’rifiy;*
- 9) 9) *fizkultura-sport;*
- 10) 10) *ko’ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalari;*
- 11) 11) *yurtdoshlar uyushmalari;*
- 12) 12) *jamg’armalar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari,*

jamoat birlashmalari.^{24[92]}

^{24[92]} O’zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to’g’risida»gi qonuni O’zbekiston yangi qonunlari-4 soni. T., «Adolat», 1993, 154-bet.

O'zbekistonda jamoat birlashmalarining quyidagi turlari mavjud:

- 1) 1) xalqaro jamoat birlashmalari;
- 2) 2) respublika jamoat birlashmalari;
- 3) 3) mahalliy jamoat birlashmalari;
- 4) 4) viloyat;
- 5) 5) Toshkent shahar;
- 6) 6) tuman;
- 7) 7) shaharcha, qishloq;
- 8) 8) viloyatlararo va tumanlararo jamoat birlashmalari.

Partiya- (lot. Partio- , bo'laman, ajrataman) g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan , shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi.^{25[94]}

Siyosiy partiya jamiyatda kishilarni birlashtiradi va ularning maqsad - muddaolarini birligi ta'minlaydi, vakillik organlari uchun kurashib, o'z siyosiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiladilar. Oliy Majlis, xalq deputatlari kengashlarini shakllantirishda ular ham eng asosiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqadilar hamda o'z nomzodlarining saylanishi bilan hokimiyatni tuzish va davlat boshqaruvida ishtirok etadilar.

O'zbekistonda oilaning konstitutsiyaviy maqomi

O'zbekistonda oila haqida g'amxo'rlik konstitutsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bo'lim XIV bobi "Oila" deb nomlanib, unga to'rt modda – 63-66-moddalar bag'ishlangan.

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deyiladi Konstitutsiyaning 63-moddasida.

O'zbekistonda 25 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ayni paytda 4 million 800 mingga yaqin oila bo'lib, aholining 98 foizini ana shu oilalarning oila a'zolari tashkil etadi. Har yili 540-550 ming bola tug'ilmoqda.

Aholini o'rta yoshi 70 yosh. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh.

Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq tug'ish yoshidagi ayollar mavjud. Yiliga o'rta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda.

O'zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident I.A.Karimov bu boradagi vazifalari haqida gapirib: "Eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi"^{26[104]}, -deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi" deyilgan. Zero, nikoh oila poydevoridir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi 1998 yil 30 aprel kuni birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida qabul qilindi va 1 sentabrdan e'tiboran amalga kiritildi. Ushbu kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Nikohni uning ijtimoiy mohiyati va maqsadiga ko'ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning ahloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilandi. Bu talablar nikohdan o'tish shartlari deb yuritiladi. Ular quyidagilardan iborat: nikoh tuzish ixtiyoriydir; nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak; nikoh tuzishga majbur qilish ta'qiqlanadi (Oila kodeksining 14-moddasi).

^{25[94]} O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. T. 2003 yil. 698-bet.

^{26[104]} Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.:O'zbekiston, 1993, 14-bet.

Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy - huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi, ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan. Bu bobda faqatgina bitta modda tushunchasida, bir-butun hokimiyatning to'rtinchi tarmog'i sifatida o'rin olishga intilayotgan, sohaning huquqiy maqomiga, qisqa, aniq barcha talablarga to'liq javob beradigan qoida mustahkamlangan: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".^{27[106]}

Mazkur me'yorning Asosiy Qonun darajasida mustahkamlanganligi, birinchidan, fuqarolarning o'z fikrlarini erkin tarzda matbuotda, radio-televideniye orqali yozma yoki og'zaki chiqishlarda ifodalash huquqini kafolatlansa, ikkinchidan, ommaviy axborot vositalariga berilgan benazir ahamiyat, yuksak e'tibordir. Ushbu konstitutsiyaviy normada uchta muhim prinsip: ommaviy axborot vositalarining erkinligi, ular faoliyatida qonun ustivorligi hamda senzura qilishga yo'l qo'ymaslik o'z ifodasini topgan. Ayni vaqtda axborotning haqqoniyligi uchun mas'uliyat yuklanib, yuridik javobgarlik belgilanishi nazarda tutilgan. Bundan ko'zlangan maqsad ommaviy axborot vositalari tomonidan ehtirosiga berilish oqibatida nojo'ya axborot tarqatilishining oldini olish, ularga chek qo'yishdir.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini isloh qilish, ularning samarali ishlashiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish borasida muayyan ishlar qilindi. Shu sababdan, bu muammo O'zbekiston Respublikasining bir qator boshqa qonunlarida ham o'z ifodasini topgan. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi 1997 yil 26 dekabr)"Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi (1996 yil, avgust), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi (1996 yil, sentabr), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi (1997 yil, aprel), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, (1997 yil, aprel), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi (2002 yil, dekabr) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1996 yil may) Farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Shubhasiz, yaratilgan qonunlar davlat hamda nodavlat shakldagi, televideniye kanallari ishini tashkil qilish, shuningdek, jurnalistlarning professional jihatdan kamol topishiga keng ko'lamda yordam berish, matbuot va ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashda, jamiyatda demokratik muhitni qaror toptirishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonunida ommaviy axborot vositalarining turlari kupsatilgan. Ular gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, bulletinlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir.

^{27[106]} O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 2003.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. T., «O'zbekiston», 1995.

IV MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY–HUDUDIIY TUZILISHI VA DAVLAT TUZILISHINING KONSTITUTSIYAVIIY ASOSLARI

REJA

- 1. Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi tushunchasi**
- 2. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi**
- 3. Ma'muriy-hududiy qismlarni tashkil qilish, o'zgartirish va tugatish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqilik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalom bor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O'zbekiston xalqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z hoxishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz hom ashyo yetkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida takidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi "...O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-ahloqiy barkamolligini ta'minlash..."^{28[109]} ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.

1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6–sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir. Uning halqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrda Olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy obyektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

Hududi katta, aholisi zich va milliy-etnik tarkibi turli-tuman bo'lgan davlatlarda ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirish va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda huquqiy demokratik prinsiplarni tabaqalashgan tarzda shakllantirish kabi bir qancha masalalarni xal qilish uchun yagona davlat yer kengliklari ma'lum bir qism (bo'linma)larga ajratiladi.

Davlat tuzilishi shakli – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar va ushbu qismlar hamda markaziy va mahalliy organlar

^{28[109]} Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod,siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996 – 123-bet.

o`rtasidagi o`zaro munosabatlar xarakteridir^{29[110]}. Demak, davlat tuzilishida davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etilishi eng birlamchi ko`rsatkich va asosiy elementlaridan biridir.

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo`lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to`laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.

Davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirish o`z maqsadi va vazifalariga ko`ra nafaqat ma'muriy-hududiy, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

harbiy-hududiy (masalan, O`zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, Farbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

ekologik-hududiy (masalan, Orol va Orol bo`yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo`lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo`lishi mumkin.

O`zbekistonning markaziy davlat apparatida asosan konstitutsiyaviy tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, samarali tashqi siyosat o`tkazish kabi vazifalar qolishi kerak. Strategik, ya'ni uzoqqa mo`ljallangan va davlatning suveren huquqini ta'minlovchi :

1)1) muhim iqtisodiy va xo`jalik ahamiyatiga ega masalalar, (masalan, pul va valuta muomalasi bo`yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish);

2)2) tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni regional va global miqyosda xal qiluvchi masalalar (masalan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ekologik inqirozli hududlarni mo`tadillashtirish);

3)3) respublika va xalqaro ahamiyat kasb etuvchi transport, aloqa va muxandislik kommunikatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish;

4)4) yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish;

5)5) mudofaa, energetika va boshqa maxsus vazifalarni bajarish kabi masalalar davlatning markaziy apparatlari darajasida xal etilishi lozim bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasidan iborat (Konstitutsiyaning 68-moddasi).

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O`zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to`plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog`iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo`ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig`inidan iborat bo`lgan.

O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy qismlarini, ularning huquqiy maqomiga ko`ra 3 toifaga ajratib guruhlashtirish mumkin (1-rasm):

1. 1. *Yuqori toifadagi qismlar* – Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;

2. 2. *O`rta toifadagi qismlar* – qishloq va shahar tumanlari, viloyat bo`ysunuvidagi shaharlar;

^{29[110]}Davlat va huquq nazariyasi / H.B.Boboyev va H.T.Odilqoriyevlar umumiy tahriri ostida-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. 141-bet.

3. 3. *Quyi toifadagi qismlar* – tuman bo'ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini.

Yuqori toifadagi qismlar. Davlat qurilishi shakliga ko'ra O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir. Shuning uchun ham o'ziga xos alohida huquqiy maqomga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi maqomga tenglashtirilgandir. Davlatning ma'muriy-hududiy qismlari ijtimoiy hayotning hamma jabhalarini o'z ichiga oladi. Milliy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga ko'ra yuqori toifadagi qismlar bir-biriga yaqin turadi.

Viloyatlar eng yirik ma'muriy-hududiy qismlardan bo'lib, O'zbekistonda ularning soni 12 ta. "Viloyat" atamasi "oblast" so'zining sinonimi bo'lib, oblastdan ko'ra ma'muriy-hududiy tuzilishning aynan ma'nosini beradi. Chunki "oblast" nafaqat ma'muriy birlikka nisbatan, balki tabiiy, iqtisodiy, harbiy birliklarga nisbatan ham qo'llaniladi. "Viloyat" esa ma'lum bir hududga nisbatan qo'llanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tariximizni to'liq aks ettiruvchi atamadir. Mamlakatimiz viloyatlari ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli, ularning joylanish xarakteri, transport va aloqa kommunikatsiyalarining rivojlanishi, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O'rta va quyi toifadagi ma'muriy – hududiy qismlar viloyatlar tarkibiga kirib, muhim tashkiliy vazifalarni bajaradi. Ular davlat vakillik organlari va boshqaruv idoralari bilan aloqa bog'lovchi yagona tizim hisoblanadi va mahalliy hokimiyatlarga rahbarlik qilishning hamda ularni vatanimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashtirishni amalga oshiradi.

Toshkent shahri. Aholisining soni 2,3 million kishidan iborat bo'lib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Iqtisodiy salohiyati (mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16%, sanoat mahsulotining 20%), fan va madaniyat o'chog'i (6 ta universitet va 23 ta institut), markaziy davlat boshqaruv idoralarining deyarli barchasi joylashganligi uchun ham poytaxt shahar huquqiy maqomiga ko'ra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 445 ta o'zini o'zi boshqaradigan fuqarolar yig'ini – mahallalar mavjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren respublika. U ham o'zining ijtimoiy – iqtisodiy salohiyati va milliy tarkibiga ko'ra yuqori toifadagi huquqiy maqomga ega. Ushbu huquqiy maqom Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi biln belgilangan. Maydoni 164,9 ming kv. km. aholisi 1,5 million kishi. U 15 qishloq tumani, 12 shahar, 16 shaharcha va 120 ovullarni birlashtiruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvchi ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan. Poytaxti – Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ysunuvidagi Nukus shahridir.

O'rta toifadagi qismlardagi ma'muriy-hududiy birliklarning boshqaruvida ham mahalliy hokimiyatlar o'z tuzilmasiga ega bo'lib, ularning tarkibida o'zini o'zi boshqaruv idoralari faoliyat yurgizadilar. 2001 yil 1 martga kelib O'zbekistonda 164 qishloq va 19 ta shahar tumanlari mavjud bo'lgan.

Tuman – temuriylar davrida qo'llanilgan turkiy ibora bo'lib, 10 ming va undan ortiq askar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlar tushiniladi. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, xo'jalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan bo'g'inlardir. Mamlakatimizda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar avvalom bor qishloq tumanlari chegarasining o'zgarishi bilan amalga oshiriladi.

Viloyatlar bo'ysinuvidagi shaharlar. Umuman shaharlar aholi manzilgohlari bo'lib, u boshqa ma'muriy – hududiy bo'linmalarga nisbatan yaxlitligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining agrar sohaga nisbatan ustun turishi bilan ajralib turadi. Qonun bo'yicha 30 ming kishidan ko'p aholisi bo'lgan bunday ijtimoiy-iqtisodiy shaharlar o'z huquqiy maqomiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: 1) viloyat markazlari hisoblangan shaharlar; 2) viloyat bo'ysinuvidagi shaharlar. Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

Quyi toifadagi qismlarga o'z mahalliy hokimiyatlariga ega bo'lmagan va asosan, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ma'muriy-hududiy bo'linmalar kiradi.

Tuman bo'ysinuvidagi shaharlarga sanoat korxonalari, kommunal xo'jalik, uy-joy jamg'armasi, ijtimoiy va madaniy muassasalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud bo'lgan, aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan va ularning aksariyati noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan aholi punktlari kiradi. Ushbu huquqiy maqomga ega bo'lish uchun aholi punkti ma'muriy ahamiyat kasb etishi va istiqbolli yo'nalishlari ham bo'lishi talab etiladi. Ularning soni 2001 yilga kelib 91 taga yetgan.

Shaharchalar. Aholisining soni 2 000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabrdagi 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.

Qishloq va ovullarning shaharchalardan farqi ular yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lganligidadir. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati "ovul" deb nomlansa, qolgan viloyatlarda "qishloq" deb yuritiladi. O'zbekistonda 11,8 mingdan ortiq qishloq va ovullar 1451 o'zini o'zi boshqaruvi fuqarolar yig'inlariga birlashtirilgan.

O'zini -o'zi nazorat savollari

1. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
2. Demarkatsiya nima?
3. Qishloq tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Qoraqalpog'iston Respublikasida tuman tuzish tartibi qanday?
5. Ovullar odatda qayerda tuziladi?

VII MAVZU. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

REJA

- 1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining konstitutsiyaviy vakolatlari**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy - huquqiy masalalari**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatini tashkil etish tartibi**

Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil qilish tartibi

O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan parlament uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransuz tilidan olingan bo'lib, "gapirmoq" ma'nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi-parlamentlar bor.

Hozirgi zamon parlamentlari o'zlarining tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o'z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o'rni, saylanish tartibi mavqei bilan bir-birlaridan ajralib turadilar. Ular hatto nomlanishi, deputatlarining soni bilan ham farq qiladilar, masalan: AQShda 535 deputatdan iborat Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy Xalq vakillari majlisida 2979 a'zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Xalq Assambleyasi, Isroilda 120 a'zodan iborat Knesset, Islandiyada 63 a'zodan iborat Altningni misol qilib ko'rsatish mumkin. Jahon parlamentlarining ko'pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Yer kurrasidagi 65 ta davlatda esa, ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud. Odatda, ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko'pincha "quyi palata" deb yuritilib, u xalqning yagona irodasini ifodalaydi. (AQShda - Vakillar palatasi, Fransiya - Millat Majlisi), boshqasi esa "yuqori palata" deb atalib, u davlatning tarkibiy qism (hudud)larining manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi muqim demokratik an'analar hamda federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga xosdir. Masalan, shu kabi parlamentlar AQSH, GFR, Braziliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalarda faoliyat yurgizmoqdalar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10-moddasida, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76- moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati - besh yil.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002 yil 12 dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki

palatali parlament shakllantirishning asosiy huquqiy asoslarini yaratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan "Qonunchilik palatasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi»^{30[121]}.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'korg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga to'lgan fuqarolar ega bo'lishi mumkin. Yosh senzining bunday belgilanishi shu bilan izohlanadiki, deputat ozmi-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga ega bo'lishi, o'zini davlat va jamoat faoliyatida ko'rsata olishi lozim. Bu masala bir qancha xorijiy mamlakatlarning Konstitutsiyalari va qonunchiligida ham deyarlik shunday hal etilgan. AQSH Konstitutsiyasida 25 yoshga to'lmagan shaxs Kongressning Vakillar palatasining a'zosi bo'lishi mumkin emas. Yaponiya parlamentining vakillar palatasiga 25 yoshga to'lmagan, maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Shuni ham aytish joizki, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzleri ma'lum.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat esa territorial subyektlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan 6 tadan, hamda Prezidentning o'zi tomonidan tayinlanadigan o'n olti nafar el-yurt obro'-e'tiborini qozongan, ko'zga ko'ringan kishilardan tarkib topadi.

Prezident I.A.Karimovning Sessiyada so'zlagan nutqida ko'rsatilganidek, «yuqori palata a'zolari joylardagi vaziyatdan yaxshi xabardor,ularni saylangan kengashlar bilan uzviy aloqa bog'lib turuvchi», ko'proq minatdorlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan deputatlardan iborat bo'ladi. «Senat qo'yi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratish ishi bilan shug'ullanmasligi lozim», balki unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma'qullashi yoki rad qilish orqali, ham o'z mintaqasi manfaatlarini hisobga olgan holda, hamda butun mamlakatimiz - O'zbekiston taraqqiyoti manfaatlarini hisobga olgan holda qonunlarni yaratishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Parlamentidagi Qonunchilik palatasi va Senat o'rtasidagi oqilona muvozanat ana shunday konstitutsiyaviy-huquqiy nazariy, hamda huquq amaliyoti asosiga tayanadi. Bu esa

^{30[121]} O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» Konstitutsiyaviy Qonuni.-Xalq so'zi, 2002, 27 dekabr.

bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkinlashtirilgan «Ochiq demokratik jamiyat» qurishning birinchi konstitutsiyaviy huquqiy asosi va kafolati bo'lib xizmat qiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining konstitutsiyaviy vakolatlari

Mamlakatda parlamentarizmning qaror topishi va rivojlanishida mustaqil O'zbekiston milliy davlatchiligi asoschisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning roli benihoya katta. Oliy Majlis tashkil qilingan birinchi kunlardan oq Yurtboshimiz yangi tipdagi parlamentni tuzishga shaxsan alohida e'tibor berdi, oliy qonun chiqaruvchi organ mustaqil O'zbekistonning yangi davlatchiligi tarkibida munosib o'rin egallashi to'g'risida muntazam g'amxo'rlik qildi. Oliy Majlis umume'tirof etilgan, to'g'ri ma'noda qonun chiqaruvchi organ – parlament bo'lib qolishiga va maqomi jihatidan hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan tenglashib, zarur konstitutsiyaviy-huquqiy muvozanatni ta'minlashiga aynan Prezidentimiz bevosita ko'maklashdi^{31[122]}.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi tufayli qonun chiqaruvchi hokimiyat katta vakolatlarga ega. Xalq hokimiyatni ayni saylov asosida o'z vakillariga topshiradi va vakolatli organlarni davlat hokimiyatini amalga oshirishga vakil qiladi. Bu vakolatli organlar davlat hokimiyati mexanizmida birlamchi ekanligi, ularning ustuvorligi hamda ustunligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunida Qonunchilik palatasining vakolatlari ikki turga ajratiladi. Bular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi hamda Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi va mazkur Konstitutsiyaviy qonunning 8-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasining Senat bilan birgalikdagi vakolatlari quyidagicha belgilandi:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
- 4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;
- 6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- 7) boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- 8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;
- 9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- 10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;
- 11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'xis etish;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

^{31[122]} Qarang: Oliy Majlis raisi E.X.Xalilovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risidagi nutqi //Xalq so'zi. – 2001. – 11 dekabr.

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 9-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi va mazkur Konstitutsiyaviy qonunning 9-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari quyidagicha belgilandi:

1) Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy -huquqiy masalalari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq yurtboshimiz I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish"ma'ruzasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ruzasida qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi^{32[125]}.

^{32[125]} Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar, № 20 (3565).

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmda asosiy o`rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo`lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo`lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o`rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat-tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko`rib chiqish bo`yicha faoliyat olib boradi^{33[126]}.

Shubhasiz, parlamentimizning faoliyatini takomillashtirish hamda demokratiyalashga yo`naltirilgan yirik tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Shu maqsadda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo`ljallangan faoliyatining asosiy yo`nalishlari qabul qilindi^{34[127]}. Lekin mazkur hujjatda Oliy Majlis faoliyatining faqat qonunchilik, nazorat-tahlil faoliyati va o`tkazadigan tadbirlari ko`rsatilgan. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi devonining Nazorat-axborot bo`limi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri – bu deputatlar o`rtasida vazifalarning to`g`ri taqsimlanishidir. Odatga ko`ra, boshqa davlatlarda ham vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbar shaxslar va devon xodimlari borligini nazarda tutgan holda taqsimlanadi. Palataning yuqoridagi tarkibi chet davlatlar tajribasiga xos bo`lib, uning ishini unumli tashkil etishda raisning roli ayniqsa muhim.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

Qonunchilik palatasi va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

- Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma`qullash uchun Senatga yuboradi;

- Qonunchilik palatasi qo`mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

- O`zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Qonunchilik palatasi Spikerining o`rinbosarlari o`rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog`liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi;

- Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;

Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;

- Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o`zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko`radi;

- Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;

- Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi va h.k.

4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatini tashkil etish tartibi

Senat faoliyatini tartibga soluvchi hujjat «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Qonunidir. Qonun to`qqizta bo`limdan iborat va o`ttiz to`rtta moddani birlashtiradi.

Ushbu Qonun Senat tomonidan o`z faoliyatini tashkil etish hamda palataning ichki tartib qoidalari bilan bog`liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Senat

^{33[126]} Bu haqda batafsilroq qarang: Халилов Э.Х. Парламент Узбекистана на современном этапе развития страны. // Право. №1. - 1998. – 8-11-бетлар.

^{34[127]} “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yilga mo`ljallangan faoliyatining asosiy yo`nalishlari to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005 yil 20 apreldagi 50-I-sonli Qarori

faoliyatini tashkil etish prinsiplari va tashkiliy shakli, Raisni va uning o`rinbosarlarini saylash va muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish tartibi, Senat Kengashi, uning qo`mitalari va komissiyalarini tuzish to`g`risidagi qoidalar aks ettirilgan. Qonunda Senat majlisida masalalarni, qonunlarni va palata qarorlarini ko`rib chiqish tartibi belgilangan. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish, mansabdor shaxslarni o`z vakolatlariga muvofiq tayinlash (saylash); O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini tasdiqlash to`g`risidagi masalalarni ko`rib chiqish hamda Konstitutsiya bilan palataning birgaligidagi va mutlaq vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni ko`rib chiqish tartibi belgilangan. Shuningdek, qonunda Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlarni, xalqaro aloqalarni amalga oshirish tartibi va xarajatlar smetasining tasdiqlanishi tartibga solingan.

Senatga doir huquqiy manbalar tizimida O`zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida»gi Qonuni^{35[137]} alohida o`rin tutadi. Qonun uchta bo`limdan iborat bo`lib, 65 ta moddani qamrab oladi.

Mazkur bo`limda Senatni shakllantirishning umumiy konstitutsiyaviy ta`rifi berilgan. Quyidagi, ya`ni: saylov o`tkazish muddatlari; Senat a`ziligiga saylanadigan nomzodlarga qo`yiladigan talablar; saylovni tashkil etishning umumiy tartibi kabi normalar belgilangan. Saylov yakunlari xususida yakunlarni chiqarish, ular ustidan shikoyat berish va Senatni shakllantirish yakunlarini e`lon qilish tartibi belgilangan. Takroriy saylov o`tkazish zaruriyati yuzaga keladigan shart-sharoitlar va uni o`tkazish tartibi aniqlangan. Bo`shab qolgan o`rinlarga Senat a`zolarining saylovini o`tkazish tartibi belgilab qo`yilgan. Shuningdek belgilab qo`yilganki, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo`shma majlislarida Senat a`zolarini saylash tartibi to`g`risidagi nizom Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o`tkaziladi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Referendum yakunlari va davlat jamiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari», «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida», «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to`g`risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to`g`risida»gi Qonunlar Senatni huquqiy jihatdan tartibga solib turuvchi manbalardir.

Senatning tuzilmaviy-funksional tizimi asoslari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Jumladan. O`zbekiston Respublikasining 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi Qonuniga asosan tuzatish va ko`shimchalar kiritilgan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 86-moddasi Senat Raisi va uning o`rinbosarlari misolida palata rahbariyatini shakllantirish tartibini, Raisning vakolatlarini belgilab beradi. 87-modda esa Senatning muhokamaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko`rib chiqish va tayyorlash, shuningdek O`zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o`z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo`mitalarni saylashini (shakllantirishni) tartibga soladi. Senat zarur hollarda muayyan vazifalarni bajarish uchun senatorlar orasidan komissiyalar ham tuzishi mumkin.

Senatning Konstitutsiya va «O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni bilan belgilangan bazaviy tuzilmasi o`z tarkibida Senat Raisi, uning o`rinbosarlari, Kengash, qo`mita va komissiyalarni qamrab oladi.

^{35[137]} O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. - 1994. - №1. - 6-modda; O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - 1998. - №3. - 38-modda; 1999. - №9. 206-modda; 2000. - № 5-6, - 153-modda.

Xulosa kilib ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini tuzish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tizimidagi palataning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. O'z faoliyatini tashkil etish va ichki tartib koidalariga bog'liq masalalar yuzasidan yuqori palata mutlaq vakolatlarga ega ekanligi, shuningdek, ularning reglament shaklida tasdiqlanish munosabati bilan ushbu tuzilma nihoyatda ixcham tarkib topadi. Shuning uchun uning Senat Raisi, Rais o'rinbosarlari, Kengash, qo'mitalar va komissiyalardan iborat bazaviy tuzilmasi Senat ishi davomida yuzaga kelgan ehtiyojlarga bog'liq holda qo'shimcha shtatlarga ega bo'lishi mumkin.

Senat qo'mitalari va komissiyalari konstitutsiyaviy maqomga ega. Bunda qo'mitalar amalda Senatning doimiy faoliyat yurituvchi tarkibiy birligi hisoblanadi.

Birinchisi - Senatga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash. Ikkinchisi - O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilib borish.

Qo'mitalar rais, uning o'rinbosarlari va qo'mita a'zolaridan iborat tarkibda senatorlar orasidan palataning vakolatlari muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida reglament bo'yicha, byudjet va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha, tashkiliy-ma'muriy masallar bo'yicha, qonunchilik va sud-huquq masalalari bo'yicha, mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha, tashqi siyosiy masalalar bo'yicha qo'mitalar tuziladi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan qo'mitalardan tashqari boshqa qo'mitalar ham tuzilishi mumkinligiga yo'l qo'yadi, ammo baribir ularning sonini, qoida tariqasida, sakkiztadan ko'paytirmasligi shart.

Senat qo'mitalarini shakllantirishning huquqiy tartibga solinishi shu bilan kifoyalanadi.

O'zini o'zi nazorat qilish savollari

1. O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organ nomi nima deb ataladi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qanday shakllantiriladi?
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarini sanab bering?
4. 4. Senat so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
5. 5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qanday shakllanadi?
6. 6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?
7. 7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi nechta qo'mitalari mavjud?
8. 8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish tartibi qanday?
9. 9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qanday vakolatlarini bilasiz?
10. 10. Oliy Majlis palatalari qanday huquqiy hujjatlar qabul qiladi?

VIII MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI

Reja

- 1. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy qilinishi va konstitutsiyaviy mustahkamlanishi**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar**

O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy qilinishi va konstitutsiyaviy mustahkamlanishi

Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib, davlat boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yil martida "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan joriy etildi. Oliy Sovet 12-chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi. 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to'g'ridan-to'g'ri umumhalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o'tkazilib, I.A.Karimov Prezident etib saylandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning Prezidentlik institutini joriy qilish tajribasi, deyarli barcha sobiq ittifoq respublikalarda qabul qilindi.

Davlat boshqaruvining prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi, ayni vaqtda u ijro hokimiyatni ham boshqaradi, faqat o'zi oldida javobgar bo'lgan hukumatni tuzadi.

"Prezident" tushunchasi konstitutsiyaviy - huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat – huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident – hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mexanizmi uchun eng muhim institutdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o'z lavozimini bajarishga kirishadi. Qasamyod – tantanali va'da, Konstitutsiya va xalqqa xizmat qilish yuzasidan Prezident o'z lavozimiga kirishganda beradigan qasamyoddir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92-moddasida berilgan:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman."

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti parlament deputatlari oldida tantanali ravishda qasamyod qabul qiladi. Qasamyod qabul qilishda Prezidentning qo'l ostida Konstitutsiya matni bo'ladi. Prezident O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qiladi. Prezident qasamyod qabul qilishi bilan, davlat madhiyasi ijro etiladi.

O'zbekistonda umumxalq saylovida saylangan Prezident I.A.Karimov birinchi bo'lib qasamyod qabul qildi. Agar bir shaxs ikkinchi marta Prezident bo'lib saylansa, qasamyod takroran qabul qilinadi.

Prezidentning qasamyodi faqat rasmiy tantanali marosim sifatidagina qabul qilinmaydi. Shuningdek, u yuridik ahamiyatga ham ega.

Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati quyidagilardan iborat:

birinchidan, Prezident qasamyod qabul qilishi bilan o'z lavozimiga kirishadi va o'zining konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab, oldingi Prezident o'z vakolatini tugatadi;

ikkinchidan, qasamyodning matni odatda Konstitutsiyada beriladi, xalqqa e'lon qilinadi va parlament oldida Prezident tomonidan tantanali qabul qilinadi. Qasamyod matnida Konstitutsiyaga sadoqat, xalq va davlatga xizmat qilish bilan birga, ko'pincha diniy tusdagi ifodalar bo'ladi yoki qasamyod Qur'onda yoxud Injilda qabul qilinadi;

uchinchidan, qasamyodni buzish Prezidentni javobgarlikka olib keladi, bu uning o'z lavozimidan chetlatilishi uchun asos bo'lishi mumkin (bunday marosim ko'p mamlakatlarda impeachment nomini olgan);

to'rtinchidan, Prezident o'ziga bevosita berilmagan vakolatlarga asoslangan harakatlarida unga qasamyod yuklagan majburiyatlarini ro'kach qilish imkoniga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida Prezident o'z lavozimida ishlayotgan vaqtda quyidagi vazifalarni birga olib bormasligi nazarda tutilgan:

birinchidan, boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallash;

ikkinchidan, vakillik organining deputati (parlament, mahalliy o'zini o'zi boshqarish) bo'lish;

uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti daxlsizlik huquqiga ega. Prezidentning daxlsizligi mutlaq bo'lib, u bajaradigan majburiyatlardan kelib chiqib, Prezidentning qonunlar bilan alohida muhofaza etilishini anglatadi. Prezident shaxsining daxlsizligi uning butun vakolatlari davomida alohida kafolatlarni ta'minlanishi bilan bog'liq.

2003 yil 25 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi qonun bilan kafolatlanadi^{36[161]}.

Prezident shaxsining daxlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi va shaxsiy ko'zdan kechirilishi mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentning shaxsi daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari

Prezident konstitutsiyaviy vakolatlarining ko'lami uning davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig'i ekanligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi ko'plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'rnatilgan doiralardagina faoliyat ko'rsatadi. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasida davlat boshlig'ining konstitutsiyaviy vakolatlari tarixiy rivojlanish bosqichlarining, shu davlatda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy kelib chiqish xususiyatlari va jug'rofiy joylashuvining ta'sirida turli xil belgilangan bo'ladi. Asosan, davlat boshlig'ining konstitutsiyaviy vakolat muddatlari diqqatga sazovordir. Masalan: AQSH,

^{36[161]} "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi Qonun // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 3g'4, 34-modda

Rossiyada – 4 yil, Fransiya, Ukraina, Germaniya, Braziliyada – 5 yil, Meksika, Misrda – 6 yil, Italiya, Isroilda – 7 yil. Prezident vakolat muddatlarining bunday tartibda belgilanganligi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir millat va elatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan 2002 yil 27 yanvardagi referendum, mustaqillikdan keyingi davrning eng muhim O'zbekiston tarixida munosib o'rin egallaydigan davlat boshqaruvining takomillashtirish rejalarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqiriq sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan: O'zbekiston Respublikasining, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati mustahkamlangan: umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirish ovoz berish yo'li bilan saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati – yetti yil", deb belgilanganligi davlat boshlig'ining o'z xalqi oldiga qo'ygan vazifasini bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ushbu norma 2003 yil 24 aprelda O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritildi.^{37[162]}

Prezidentning asosiy vazifasi – davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining quyidagi yo'nalishlarida uning konstitutsiyaviy vakolatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

1. Avvalambor, O'zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining uzluksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklar amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko'rishga majbur. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ta'sirchan mexanizmini yaratish, xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat organlari xodimlari va butun aholining inson huquqlari masalalari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning demokratiyalash, inson huquqlari va boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash borasidagi tavsiyalariga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti 1996 yilning 31 oktabridagi farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil qildi.

Prezident inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan hamda aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini, masalan pensionerlar, nogironlar va davlat tomonidan himoyaga muhtoj fuqarolarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlar, farmonlar chiqarish orqali o'zining inson huquq va erkinliklarining kafili sifatidagi funksiyasini bajarib kelmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarining o'z konstitutsiyaviy majburiyatlarni zarur darajada bajarishlarini ta'minlaydi. U xatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali ham, shu sohadagi vakolatli organlar, xususan sudlar vositasida ham bunga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyada belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radi. Suverenitetni muhofaza qilish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining faoliyat ko'rsatishi orqali ta'minlanadi. Shuning uchun Prezident maxsus vakolatlariga ega, xususan, favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz berganda shaxsan o'zi tezkor qarorlar qabul qiladi. Masalan, u fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Respublika Oliy Majlisining tasdig'iga kiritadi.

^{37[162]} O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003, № 3-4, 27-modda

3. Prezident davlat boshlig'i sifatida xalqaro munosabatlar sohasida muhim vakolatlariga ega. Bunda u muhim vakillik funksiyasini bajaradi. Bu funksiyani u yakka o'zi shaxsan amalga oshiradi.

Prezident mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi.

Prezident xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining vakilidir. Bu yerda Prezident O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlari subyekti, suveren va mustaqil mamlakat sifatida namoyon qiladi. Bu shuni anglatadiki, faqat Prezidentgina shartnoma va bitimlarga imzo chekishi, muzokaralarda O'zbekiston nomidan qatnashishi, Respublikaning xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va bitimlari qonun qabul qilish orqali O'zbekiston Oliy Majlis palatalari tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Xalqaro shartnoma va bitimning ratifikatsiya qilinganligi ratifikatsiya yorlig'i bilan tasdiqlanadi. Ratifikatsiya yorlig'iga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekadi. Ikki tomonlama shartnoma va bitimlar tuzilganda uning ishtirokchilari ratifikatsiya yorliqlarini almashadilar. Ko'p tomonlama shartnomalarda ratifikatsiya yorlig'i depozitariy davlatga yoki xalqaro shartnoma matnini saqlovchi xalqaro tashkilotga berib qo'yiladi.

Prezidentning tashqi siyosat sohasidagi muhim vakolatlari jumlasiga qo'yidagilar kiradi:

Akkreditatsiyadan o'tgan elchilar va boshqa diplomatik vakillarga ishonch va chaqirib olish yorliqlarini topshirish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlardagi elchilari va boshqa diplomatik vakillari nomzodlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish to'g'risida taqdim kiritadi.

Yorliqlar topshirilayotganda, odatda tashqi ishlar vaziri qatnashadi. Diplomati vakil o'zining nomini, davlatning nomini, davlat boshlig'ining nomini aytadi, yorliqni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga topshiradi. Ko'pincha yorliqlar topshirish uchun bir nechta yangi elchilar yig'ilishadi. Yorliqlar topshirilgach, O'zbekiston Prezidenti yangi elchi bilan qisqacha suhbatlashadi. Prezidentning ishonch yorlig'ini qabul qilishi shuni anglatadiki, tayinlangan va O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy davlat elchisi yoki diplomatik vakil yoxud xalqaro tashkilot vakili akkreditatsiyadan o'tgan, ya'ni rasmiy ravishda mamlakatimizda o'z majburiyatlarini bajarishga kirishgan deb hisoblanadi.

Xorijiy davlat elchisi yoki xalqaro tashkilot hamda xorijiy davlatning diplomatik vakili funksiyasini bajarishining to'xtatilishi Prezidentga chaqiruv yorlig'ini topshirish orqali rasmiylashtiriladi.

Chet el davlatlarida O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatlarining boshliqlarini tayinlash va chaqirib olishning tartibi "Xorijiy davlatlardagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash va ularni chaqirib olish to'g'risida" gi 1992 yil 3 - iyuldagi qonun bilan belgilanadi. Bu qonun "Diplomatik aloqalar to'g'risida" gi 1961 yilgi Vena konvensiyasi hamda boshqa umume'tirof etgan xalqaro - huquqiy normalar va qoidalarga to'la mos keladi.

Xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimi bilan Senat tomonidan tayinlanadi. Diplomati vakolatxona boshlig'i lavozimiga nomzodni Tashqi ishlar vazirligi manfaatdor organlarning kelishuvini olgan holda tavsiya etadi. Favqulodda va muxtor elchi yoki favqulodda va muxtor vakilning belgilangan mamlakatga jo'nab ketishidan oldin Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekkan va tashqi ishlar vazirining imzosi qo'yilgan, belgilangan davlat boshlig'iga berish uchun mo'ljallangan ishonch yorlig'ini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining boshlig'ini chaqirib olish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

birinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig'i almashtirilganda;

ikkinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig'i nomaqbul shaxs (person non grata) deb e'lon qilinganda;

uchinchidan, davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilganda;

to'rtinchidan, davlatlar o'rtasida urush holati e'lon qilinganda;

beshinchidan, davlat xalqaro huquq subyekti sifatida mavjudligini tugatganda.

4. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan Oliy Majlis palatalariga har yili ma'ruzalar taqdim etadi. Uning ma'ruzasi normativ hujjat hisoblanmaydi. Bu axborot siyosiy tusga ega bo'lib, mamlakatni rivojlantirishning dasturiy prinsiplari va strategik vazifalarini o'z ichiga oladi.

Ma'ruzada O'zbekiston Prezidentining mamlakat kelajagini qanday tasavvur qilayotganligi bayon etiladi. Jumladan, O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi chiqishlarini ko'rsatib o'tish mumkin: 1995 yil 23 fevraldagi birinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy tamoyillari", 1996 yil 29 avgustdagi milliy parlamentning oltinchi sessiyasidagi, "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim vazifalari", 1999 yil 14 aprelda o'n to'rtinchi sessiyadagi, "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"; 2000 yil 22 yanvarda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi, "Oliy maqsadimiz - Vatan ozodligi va obodligi, xalq erkinligi va farovonligi", 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mavzusidagi chiqishlari davlatning tashqi va ichki siyosatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib o'tildi. Prezidentning bu ma'ruzalarida mamlakat taraqqiyotining strategik ustuvoryo'nalishlari belgilab berildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida nutq so'zlaydi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijroiya hokimiyatini tuzish bilan bog'liq vakolatlari ancha keng bayon qilingan. Bunday vakolatlarning ko'pchiligiga quyidagi ikkita sabab bor:

birinchidan, Prezident bo'lib saylangan shaxsning dasturi umumxalq saylovlari orqali qo'llab - quvvatlangani uchun u ijro hokimiyat organlarini tuzishda ma'lum vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Chunki uning dasturini bajarish asosan, ijro hokimiyati organlari zimmasiga tushadi, ularni tuzishda Prezidentning vakolatlari juda muhim o'rin tutadi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri bo'lmish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatining biror organi faqat bir hokimiyat tarmog'i tomonidan tuzilishini istisno qiladi. Shuning uchun davlat hokimiyatining markaziy organlarini tuzishga ham Prezident, ham Oliy Majlis jalb qilingan. Bunga quyidagi ikki yo'l bilan erishiladi: Prezident muayyan mansabdor shaxslarni tayinlaydi, Oliy Majlis esa ma'qullaydi, yoxud Oliy Majlis tayinlaydi, nomzodni esa Prezident taklif qiladi.

Ijro hokimiyati organlarini tashkil qilishda Prezidentning vakolatlari juda keng. Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi. Bosh vazirning taqdimiga binoan Prezident O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi. Bundan tashqari Prezident ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi. Prezident vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi hamda shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlis palatalar tasdig'iga kiritadi. Prezident Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchilik bu masalalarni Oliy Majlis Senatining tasdig'iga kiritadi. Shuningdek, Prezident viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritadi. Prezident o'z qarori bilan Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr - qimmatiga dog' tushiradigan xatti - harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalaga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati taqdimiga kiritadi.

6. Sud hokimiyati organlariga kelganda, shuni aytish mumkinki, Prezident Oliy Majlis Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sud raisi va sudyalari nomzodlarni taqdim etadi. Ularni Oliy Majlis Senati saylaydi. Shuningdek, Prezident viloyat, tumanlararo, tuman, shafar, harbiy va xo'jalik sudi sudyalarini tayinlaydi va lavozimlardan ozod qiladi. Prezidentning taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati Markaziy Bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Faqat ijro hokimiyati organlarini tuzishgina emas, balki ularning faoliyati bilan bog'liq sohada ham Prezidentga katta vakolatlar berilgan. Konstitutsiyaga muvofiq Prezident ijro hokimiyatining boshlig'i hisoblanadi. Bosh vazir taqdimiga binoan hukumat a'zolarini tasdiqlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi.

Agar respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga zid bo'lsa yoki ular inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol qilsa, ushbu masala tegishli sudda hal qilinmagunicha Prezident bu hujjatlarni to'xtatish yoki bekor qilishga haqli.

7. Prezidentning respublika davlat va boshqaruv oliy organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlashdagi vakolatlari ham bor. Buning uchun u Konstitutsiyada o'rnatilgan, Oliy Majlisga ta'sir o'tkazish (XVIII bob), Vazirlar Mahkamasiga ta'sir o'tkazish (XX bob) dastaklaridan foydalanishi, ba'zi hollarda sudga murojaat qilishi, masalani Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun taqdim etishi mumkin

Prezident O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, buni Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash uchun Prezident Konstitutsiyada ko'rsatilgan boshqa vositalardan ham foydalanish imkoniga ega. Lekin Prezidentning davlat va ijro hokimiyati boshlig'i sifatidagi obro'si hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki u to'g'ridan - to'g'ri umumiy saylovlarda xalq topshirgan siyosiy mandatga ega.

8. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni imzolaydi. Prezidentning imzosi bo'lmasa, qonun kuchga kirmaydi. Bu davlat boshlig'ining an'anaviy funksiyasi bo'lib, qonunga majburiy kuch beradi va qonun chiqaruvchilik jarayonini yakunlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun Prezidentga o'n kun ichida yuboriladi. Prezident esa o'ttiz kun ichida qonunni imzolaydi hamda matbuotda e'lon qilindi

Qonunni imzolash rasmiy akt emas. Qonunni imzolash uning xalqqa e'lon qilinganligini, ya'ni uni ommaga bildirganligini anglatadi. Bunday rasmiy e'lon qilish - Oliy Majlis qabul qilgan va Prezident imzolagan qonun matnini rasmiy maqom berilgan matbuot organida nashr etishdir. Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishida ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Qonun butun O'zbekiston Respublikasi xududida kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Konstitutsiyaviy huquqda bu " Prezident vetosi " nomini olgan bo'lib, boshqaruvning prezidentlik shaklidagi davlatlarga xosdir.

Veto - davlat boshlig'ining parlament qabul qilgan, lekin hali kuchga kirmagan qonunga e'tiroz bildirish huquqidir. O'zbekiston Konstitutsiyasida "Veto" atamasi ishlatilmagan. O'zbekiston Konstitutsiyasida Prezidentning asoslangan e'tirozini bildirib, qonunni takroran muhokama qilish va ovozga quyish uchun Oliy Majlisga qaytarish huquqi haqida gapiriladi.

Qaytarish uchun asoslar ro'yxati Konstitutsiyada ko'rsatilmagan, lekin qonunni qaytarar ekan, Prezident bunday qarorning sababini asoslab beradi. Bunda Prezident umuman qonunga va e'lon qiladi yoki uning biror qoidasiga e'tiroz bildirishi mumkin.

Agar Prezident tomonidan qaytarilgan qonunni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati a'zolarining umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi ma'qullasa, qonun o'n to'rt kun ichida Prezident imzolashi va e'lon qilishi kerak bo'ladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat masalasidagi vakolatlari Konstitutsiya 93-moddasining 19-bandida aniq ifodalangan. Faqat Prezidentgina butun respublika hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritadi. Lekin Prezident bunday qarorni qabul qilishda erkin emas, chunki favqulodda holat faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibdagina joriy etiladi. Prezident bu haqda qabul qilgan qarorini uch kun ichida Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritadi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy sohadagi vakolatlari ancha keng. U respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Prezidentning Oliy Bosh qo'mondon ekanligi Mudofaa vazirligiga har qanday buyruqlar berishiga imkon tug'diradi. Mudofaa vaziri amalda bevosita Prezident rahbarligida ishlaydi. Urush yoki agressiya holatida Prezident har qanday vaqtda Qurolli kuchlarga boshchilik qilishni o'z qo'liga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tajovuzdan, bir - birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilishga haqli, u bu qarorini uch kun mobaynida mamlakat Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi.

11. Davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpana berish, O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash, amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritish va avf etish kabi masalalarni hal qilish kiritilgan. O'zbekistonda yagona fuqarolik o'rnatilgan bo'lib, unga qanday asoslarda ega bo'lishidan qat'iy nazar barcha uchun tengdir (Konstitutsiyaning 21-moddasi). Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotishning asos va tartiblari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik to'g'risida" gi qonuni bilan belgilanadi. Qonunning 30- moddasida Prezidentning fuqarolik masalalari bo'yicha vakolatlari belgilangan.

Prezident bu masala bo'yicha quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish;

ikkinchidan, xorijda yashayotgan tegishli iltimosnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga tiklash to'g'risida;

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqarish to'g'risida;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlik to'g'risida.

Yuqorida aytilgan masalalarni dastlabki ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida fuqarolik masalalari bo'yicha komissiya tuzilgan. U har bir ariza yoki iltimosnomaning Prezident ko'rib chiqishiga tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilish va undan chiqishining batafsil tartibi (zarur hujjatlari, ular qayerga yuborilishi kerak va h.k.). "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishning tartibi to'g'risidagi qoidalar" bilan tartibga solinadi. U 1992 yil 22 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo'yicha Prezident farmon chiqaradi.

Siyosiy boshpana – o'z mamlakatida siyosiy vajlarga ko'ra ta'qib qilinayotgan xorijiy shaxsga, fuqaroligi bo'lmagan shaxsga boshqa mamlakatda yashash huquqini berishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xorijiy shaxsga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga siyosiy boshpana berilishi shuni anglatadiki, bu odam O'zbekistonga kelishi mumkin va jinoyatchi sifatida boshqa davlatga berilmaydi. Odatda siyosiy boshpana siyosiy faoliyati, ilmiy va madaniy vajlar uchun, milliy va diniy vajlar tufayli ta'qib qilinayotgan shaxslarga beriladi.

Siyosiy boshpana huquqi 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (14-modda) va BMT Bosh Assambleyasining 1967 yil 14 dekabrda qabul qilingan hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyada nazarda tutilgan, lekin rezolyutsiya faqat tavsiya xususiyatiga ega. Siyosiy boshpana olish uchun zarur bo'lgan shartlarni belgilash – boshpana berayotgan davlatning suveren huquqidir. Faqat O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga siyosiy boshpana berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga vakolatlidir.

12. Davlat mukofotlari va faxriy unvonlar – davlatning iqtisod, fan, madaniyat, san'at, Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag'batlantirishning oliy shaklidir. Konstitutsiyaga muvofiq davlat mukofotlari (ordenlar, medallar, yorliqlar) bilan taqdirlash O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. U oliy harbiy unvonlarni (masalan, armiya generali), oliy malakaviy unvonlarni (masalan, diplomatik daraja), oliy maxsus unvonlarni (masalan, amaldagi davlat adliya maslahatchisining toifa darajasini) beradi. Fan va texnika, adabiyot va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bo'yicha komissiyaning qarori Prezident farmonlari bilan tasdiqlanadi. Faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga emas, balki xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham davlat mukofotlari va faxrli unvonlar bilan mukofotlanishi mumkin. Masalan, 1996 yil aprelda fransuz olimi, professor L. Keren Amir Temur merosini o'rganishga qo'shgan katta hissi uchun "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.

Mukofotlangan shaxs qasddan jinoyat sodir etganda sudning taqdimnomasiga binoan faqat Prezident tomonidan davlat mukofotlaridan mahrum qilinishi mumkin (Prezidentning maxsus farmoni chiqariladi).

13. Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlisning Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi. Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o'tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdir. Amnistiya e'lon qilinishi bilan jazoni o'tayotgan shaxslar uni o'tashdan ozod qilinadilar yoki jazo muddati qisqartiriladi. Agar ayblanuvchi ishning amnistiya bo'yicha to'xtatilishiga e'tiroz bildirsa, ushbu ish tergov va sud yurituvda davom etadi. Sud ayblanuvchini aybdor deb topsa, shu amnistiya aktida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni avf etadi. Avf etish to'g'risidagi qarorni qabul qilar ekan, Prezident inson huquqlari va erkinliklarining kafolati sifatida maydonga chiqadi. Chunki mahkumning O'zbekiston Prezidentiga murojaat qilishi – jinoiy jazo chorasini qaydaydir darajasida bo'lsada o'zgartirishning so'nggi imkoniyatidir.

Amnistiyadan farqli ravishda avf – individual akt, ya'ni muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga taalluqli hujjatdir. Avf hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyati uchun sudlangan shaxsni jazodan ozod qilish yoki jazoni yumshatishdir. Avf etish rehabilitatsiyadan farq qiladi. Rehabilitatsiya (oqlash) ham individual akt, lekin u oqlangan shaxs noqonuniy hukm qilinganini bildiradi. Avf esa hukmning to'g'riligini tasdiqlaydi, lekin mahkumning holatini yengillashtiradi (jazo chorasini o'zgartirish, jazoni o'tashdan ozod qilish).

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

14. Konstitutsiyaning 95-moddasi ko'p mamlakatlarda mavjud bo'lgan davlat boshlig'ining parlamentni tarqatib yuborish institutiga bag'ishlangan. Parlamentni tarqatib yuborish - uning vakolatlari tugaguncha, yangi saylovlar belgilangunicha parlament faoliyatining to'xtatilishidir. Parlamentni tarkatib yuborish hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini amalga oshiradigan muvozanatlar va ziddiyatlar tizimining muhim elementidir.

Parlamentni tarqatib yuborish, qoida tariqasida, Konstitutsiya amalga oshirish mumkin yoki qonunlar asosida ko'rsatilgan.

Prezident Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senati faqat Konstitutsiyada aniq belgilangan hollardagina tarqatishi mumkin:

birinchidan, Oliy Majlisning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senatini tarkibida uning normal faoliyatini tahdidga soladigan, hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

ikkinchidan, Oliy Majlis palatalari bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilganda;

uchinchidan, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida Oliy Majlisning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

To'rtinchidan, tarqatib yuborishga Konstitutsiyaviy sudning roziligi bo'lganda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

Konstitutsiyaning 94-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan mamlakatning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z vazifalari va konstitutsiyaviy vakolatlarining amalga oshirish maqsadida ko'p qirrali huquq ijodkorligi faoliyatini yuritadi.

Prezident butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan uch xil normativ-huquqiy hujjat:

- 1) 1) farmonlar;
- 2) 2) qarorlar;
- 3) 3) farmoyishlar chiqaradi.

Farmon – aniq bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo'lib, uzoq muddatga amal qiladi. Farmon – normativ-huquqiy hujjat. U huquqni qo'llash xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin va demakki, normativ mazmunga ega bo'lmasligi ham mumkin. Normativ mazmundagi farmonlar nashr etiladi, masalan u yoki bu shaxsni biror lavozimga tayinlash to'g'risida.

Farmoyish – individual tashkiliy xususiyatdagi hujjatdir.

Prezident chiqaradigan hujjatlar uning o'zi tomonidan mustaqil chiqariladi. Prezident chiqaradigan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi shart. Chunki ular Konstitutsiya va qonunlar asosida, ularni bajarish maqsadida chiqariladi. Prezident chiqargan normativ hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi masala, zaruriyat tug'ilganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan hal qilinadi (Konstitutsiyaning 109-moddasi). Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Konstitutsiyaviy sud butun hujjat yoki uning ayrim qoidalari konstitutsiyaviy yoxud g'ayri konstitutsiyaviy ekanligi haqida qaror qabul qilishi mumkin. Shu tariqa Prezident aktlarining konstitutsiyaviy bo'lishi kafolati ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari qonun osti hujjatlari deb atalmaydi. Lekin ular Konstitutsiya va mamlakat qonunlariga zid bo'lmasligi shart (16-modda). Lekin "Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan" deyilgan konstitutsiyaviy bayon qilish, shuningdek, faqat qonun tomonidan tartibga solinadigan masalalar ro'yxatining Konstitutsiyada mavjud emasligi – Prezidentning huquq ijodkorligi faoliyatini keng talqin qilishga imkon beradi. Biror masalani qonun bilan tartibga solish mavjud bo'lmagan hollarda, Prezident oldindan ushbu masala yuzasidan normativ farmon chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xabarnomasi" va shuningdek, respublika gazetalarida rasman e'lon qilinadi.

O'zini- o'zi nazorat qilish savollari

- | | | |
|----|----|---|
| 1. | 1. | “ Prezident” so'zining lug'aviy ma'nosi nima anglatadi? |
| 2. | 2. | O'zbekistonda Prezidentlik instituti qachondan boshlab joriy qilindi? |
| 3. | 3. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi nomzodiga qanday talablar belgilangan? |
| 4. | 4. | Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati nima? |

- | | | |
|-------------------------|----|--|
| 5. | 5. | O`z lavozimida ishlayotgan Prezident boshqa qanday lavozimlarga |
| ishlashi taqiqlanadi? | | |
| 6. | 6. | O`zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlarini |
| ayting? | | |
| 7. | 7. | O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday normativ-huquqiy |
| hujjatlar qabul qiladi? | | |

IX MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI

Reja

- 1. O`zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatining tashkil etilishi.**
- 2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy vazifalari.**
- 3. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari va ijroiya hokimiyat organlari munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi.**
- 4. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va vazifalari.**

1. O`zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatining tashkil etilishi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, respublikada yagona vakillik organlarining tizimi mavjud. Bu tizimning eng yuqorisida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi turadi. Shu bilan birga Oliy Majlis Konstitutsiyaga muvofiq qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari ham vakillik organlarining quyi bo`g`ini hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasida yagona qonun chiqaruvchi organ mavjud bo`lib, u Oliy Majlis nomi bilan ataladi. O`zbekistondagi davlat hokimiyati vakillik organlarining yagona tizimi viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari vakolatlarini Oliy Majlis belgilaydi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti O`zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig`idir.

O`zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat, tuman, shahar hokimlaridir, ushbu orgaylarning vakolatlarini ham Respublika Oliy Majlisi belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari deb nomlangan. Konstitutsiyaning **99-moddasiga** ko`ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo`ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo`lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab o`z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Konstitutsiya asosida O`zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining ikki tabaqali tizimi vujudga keltirildi. Mahalliy ijro va vakillik organlari o`rtasidagi huquqiy munosabatlarning konstitutsiyaviy holati aniqlandi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biriga bo`ysunmagan mustaqil davlat va vakillik organlari bo`lib, o`zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o`z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari kengashlariga hokimlarning rahbarligi uni Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

"Vakillik va ijroiya hokimiyatining tegishliligiga qarab, viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va shahar hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo`ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi."^{38[178]}

Demak, mahalliy davlat hokimiyati organlarning faoliyatini tashkil etish O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida»gi qonuni, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari «Ish tartibi" va boshqa me'yoriy qonun hujjatlari asosida tashkil etiladi.

O`zbekiston Respublikasidagi ayrim xalq deputatlari Kengashlarida hokimning ijro etuvchi mahkamasi to`g`risida Nizomlar ham qabul qilinadi.

^{38[178]} O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T., O`zbekiston 2003 yil.

Mahalliy ijroiya hokimiyati deganda O'zbekistonda barpo qilingan viloyat, tuman shahar hokimiyatlari tizimi tushuniladi. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi mahkama hokimning rahbarligi ostida ishlaydi.

Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:
qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
atrof-muhitni muhofaza qilish;
fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. (100-modda).

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va davlat qurilishi sohalarida amalga oshirilgan islohatlar qatorida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini isloh qilish alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish munosabati bilan yanada faollashdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Respublikada milliy davlatchilik an'analarini tiklashni ko'zda tutib, hokimlik instituti kiritildi. Hokimlar qonunga muvofiq ham vakillik organlariga, ham ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladilar. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi davlat hokimiyati vakillik organlarining quyi bosqichlarini ovul, qishloq, shaharcha, tumanga bo'ysunuvchi shahar va shaharlardagi xalq deputatlari sovetlari tugatilib, ularning o'rniga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari joriy etildi. Fuqarolik jamiyati qurishning ma'nosi davlatchilik rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq respublikada nazorat xizmatini respublika Prezidenti tuzadi, bu Respublika Prezidenti apparatidagi nazorat inspeksiyasidir. Viloyat, tuman va shahar hokimlari apparatida ham nazorat inspeksiyasi tuzilgan.

Mahalliy Kengashlar faoliyatida qonuniylik prinsipini ta'minlash qator talablarga javob berishni ko'zda tutadi, ularni asosiylari quyidagilardir:

Birinchidan, konstitutsiya va qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarga rioya qilish. Har bir Kengash qonunlar bilan belgilangan masalalarnigina hal qilishi mumkin.

Ikkinchidan, masalalarni hal qilishni belgilangan tartibiga rioya qilish.

Nihoyat, **uchinchidan**, qabul qilinayotgan aktlarga nisbatan qonunchilik talablariga rioya qilish, Kengash faqat unga berilgan huquqlar doirasidagina aktlar qabul qilishi mumkin. Kengashning qarori o'zining mazmuniga ko'ra, qonunlarga va yuqori organlarning aktlariga mos bo'lishi shart. Qaror, qonunlar ko'zda tutilgan tartibda va shaklda qabul qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashlari ishini oshkoraligini ta'minlash usullari juda ham turli-tuman, lekin ular bir-biridan ajralib qolgan emas, ularni demokratik asosi va maqsadi birdir. Alohida olingan usulning o'zi Kengashlarning faoliyatida oshkoralikni ta'minlay olmaydi albatta, lekin ularning hammasi kengashlar faoliyati omma oldida va uning ishtirokida olib borilishiga muhim omil bo'ladi.

Bu talablar faqat vakillik organlari faoliyatiga tatbiq qilinib qolmasdan, balki ijroiya hokimiyati, uning organlari va hamma deputatlarning faoliyatiga ham tatbiq qilinadi, chunki

deputatlarning sessiyalardagi, komissiyalardagi va saylov okruglaridagi faoliyati, boshqarish sohasidagi davlat faoliyatining bir ko'rinishidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq hamma millat vakillari shu organlarga saylanibgina qolmasdan, ular tizimidagi organlarda ham keng faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Deputatning o'z saylov okruglaridagi faoliyatini amalga oshirishdagi muhim kafolatlaridan biri, deputatning qonun buzilgan hollarni bartaraf etishni talab qilish huquqidir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi qonunida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra davlat hokimiyatining vakili sifatida deputat fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari buzilganligi yoki qonunchilik o'zgacha tarzda buzilgan hollarga duch kelganda o'sha joyning o'zida bunday buzilishlarning to'xtatilishini talab qilishga, zarur hollarda esa shunday buzilishlarga chek qo'yilishini talab qilib, tegishli organlar va mansabdor shaxslarga murojaat etishga xaqlidir.

Xalq deputatlari o'z saylovchilari bilan doimiy aloqada bo'lishlari, ularni Kengash ishi haqida, xo'jalik va ijtimoiy qurilish rejalarini bajarilishi haqida xabar qilib turishlari kerak. Deputatlar qonunlarni kengash va uning organlari qarorlarini ijro qilinishida nazorat qilishlari, jamoatchilik fikrini o'rganishlari, Kengash va uning organlariga aholining talab va ehtiyojlarini yetkazishlari va ularni qondirishga tadbirlar ko'rishlari, tegishli organlarni ko'rib chiqish uchun, deputatlik faoliyatidan kelib chiqadigan takliflarni kiritishlari lozim.

3. Mahalliy hokimiyat vakillik organlari va ijroiya hokimiyat organlari munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq viloyat, tuman va shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatni boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari kengashi oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunida xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatida qonuniylikning kafolatlari berilgan. Shu qonunning 26-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi. Hokimlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, hukumat hujjatlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan qonunning 28-moddasiga muvofiq hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Oshkoralik davlat hokimiyati vakillik organlarini yana rivojlantirishda muhim yo'nalishlardan biridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi ham, mahalliy vakillik organlari bo'lgan viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari ham, o'zini-o'zi boshqarish organlari ham saylovlar asosida tashkil etiladi.

Xalq deputatlari kengashlari va hokim faoliyati, qarorlar qabul qilishdan tortib, ularni ijrosini ta'minlashgacha, ommaning ko'z o'ngida amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonunlar ularning o'z ishlari va qabul qilgan qarorlari haqida aholini muntazam xabardor qilib turishlarini mustahkamlagan. Ma'lumki, vakillik organlari faoliyatining asosiy shakli ularning sessiyalaridir.

Amalda bo'lgan qonunchilik deputatlar Kengash qarorlarini aholiga tushuntirib borishini, saylovchilar oldida mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari oldida muntazam o'z ishi va Kengash faoliyati to'g'risida axborotlar berib turishini o'rnatadi. Bu ham oshkoralikning muhim ko'rinishlaridan biri. Oshkoralikning yana bir yo'li deputatlarning hisobotlaridir. O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risidagi qonunda deputatlarning aholi oldida muntazam hisobot berib borishlari belgilab qo'yilgan.

Mahalliy vakillik organlari, ijroiya hokimiyati va deputatlar faoliyatining samaradorligini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, shu organlarning o'zaro hamkorligining yaxshi yo'lga qo'yilganligidir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va uni iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlatga aylantirish jarayonida davlatni boshqarishda huquqiy tartibga solish yangi ma'no kasb etadi va bu uslub keng qo'llanildi. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ham huquqiy tartibga solish uslubini keng qo'llaydilar. Huquqiy tartibga solish xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarni davlat, xo'jalik, ijtimoiy madaniy qurilish sohalariga rahbarlik qilishlarida va o'z ichki tashkiliy tuzilishlarini tartibga solishlarida keng qo'llanildi.

Xalq deputatlari Kengashlarini va hokimlarni o'zini-o'zi boshqarish organlarini vakolatlari birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarida va boshqa hujjatlarda belgilandi.

Huquqiy hujjatlar bilan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari, hokimlarni funktsiya va vakolatlarini amalga oshirishdagi deputatlarni, hokimlik devonini, devon xodimi va fuqarolarni tutgan o'rni va roli tartibga solindi.

Shu bilan birga huquqiy hujjatlar bilan xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar faoliyatining asosiy tashkiliy shakl va uslublari tartibga solindi. Yuqorida aytganlardan ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklar faoliyatini huquqiy tartibga solish murakkab jarayonni tashkil etadi, hozirgi davrda huquqiy normalar bilan bir qatorda boshqa ijtimoiy normalardan ham foydalanish ko'rsatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va hokimliklar faoliyatini huquqiy tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi juda katta vakolatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 4-bandidagi holatga muvofiq. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimini va vakolatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qaror qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 24-moddasiga muvofiq o'zini o'zi boshqarish organlari ham qarorlar qabul qiladilar.

Davlat hokimiyatining vakillik organlari faoliyatini tartibga solishda Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan «Ish tartiblari» muhim ahamiyatga ega. Qonunning 18-moddasiga ko'ra Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan "Ish tartiblari" xalq deputatlari kengashi sessiyalarini chaqirish va o'tkazish, unda qarorlar qabul qilish va sessiyaga hal qilish berilgan boshqa vakolatlar xalq deputatlari Kengashi "Ish tartibi"ga muvofiq belgilanadi.

Sanab o'tilgan huquqiy hujjatlar yordamida mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari, hokimliklar va o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini amalga oshirish uchun qaratilgan, ular yordamida shu organlarning vakolatlari amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kungacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan davlat hokimiyatining vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlarni qabul qiladilar: xalq deputatlari Kengashining, hokimlik apparatining, "Ish tartibi" (Reglamenti).

Xalq deputatlari yordamchi va ijro etuvchi organlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlar ularga: deputatlik guruhlar to'g'risidagi Nizomlar, hokimiyat apparatini bo'lim boshqarmalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizomlar kiradi.

Hokimlik apparatini tizilmaviy qismlari to'g'risidagi huquqiy hujjatlar, ularga: mansab yo'riqnomalari, bo'lim va boshqarmalarning komissiyalari to'g'risidagi, qabulxonalar to'g'risidagi Nizomlar, apparatdagi mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi normativ hujjatlar, ularga - yo'riqnomalar kiradi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatining ayrim yo'nalishlari bo'yicha qabul qilinadigan hujjatlarga apparatda ish yuritish bo'yicha yo'riqnomani ko'rsatish mumkin va nihoyat davlat hokimiyatining vakillik organi va hokimlik apparatida jamoatchilikning tashabbuskor organlarini, fuqarolarni ishtirok ettirishda xizmat qiladi.

Viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar o'z hududlarida qonuniylik, huquq tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boriladi. Yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari quyi turuvchi xalq deputatlari faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirar ekanlar, ular faoliyatini ham nazorat qiladilar. Xalq deputatlari kengashlari o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan ham nazorat o'rnatdilar va ular faoliyatini yo'naltirib turadilar.

O'zbekiston Respublikasini "Mahalliy davlat hokimiyat to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi mulk shakllari belgilangan, unga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarining davlat mulki (jamoat mulki) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk shakllarini tashkil etadi.

Qonunda mahalliy davlat faoliyatining moliyaviy asosi ham ko'rsatilgan. Ushbu Qonunning 2-moddasida viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslari belgilangan, unga ko'ra viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarni budjet manbalari, budjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar kredit resurslari, shuningdek respublika (viloyat, Toshkent shahri) budjetidan ajratilgan subvensiyalar va dotatsiyalar tashkil etadi.

Qonunga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar budjetidan tashqari fondlari ham bo'lishi mumkin, qonunning 14-moddasiga ko'ra xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi: fuqarolar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari va xayriyalaridan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq undiriladigan ayrim turdagi jarimalardan, budjetdan tashqari o'zga mablag'lardan tarkib topadigan budjetdan tashqari fondlardan tashkil topadi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar xo'jalik qurilishi sohasida sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa vositalarini, turar joy qurilish, kommunal qurilish, hududlarni obodonlashtirish, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatish, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish masalalarni hal qiladilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar ijtimoiy madaniy qurilish sohasida xalq maorifi, madaniy oqartuv ishlari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport, mehnat va ish haqi masalalarini hal qiladilar. Mazkur sohada sanab o'tilgan vakolatlarni o'ziga xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning shu sohadagi funksiyalarini murakkab va turli tuman mazmun kasb etishini ko'rsatadi.

4. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyasida 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzilishini va ularni huquqiy holatini belgilab berdi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy holatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashishadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida quyidagicha belgilangan, «shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi». (105-modda)

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan ilk bor 1993 yili va 1999 yili yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, o'zini-o'zi boshqarish organlarini ikki bosqichi yoki ikki turi tuziladi, birinchisi oldin davlat hokimiyati organlari tuzilgan hududlarda yangi qishloq, shahar va ovullarda tuzildi, ikkinchisi shaharlardagi mahallalarda oldingi mahalla komitetlari o'rnida tuzildi. Shaharcha, qishloq va ovullarda tuziladigan o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat organlarini ayrim funksiyalarini bajarmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida hayotga tadbiiq etilgan o'zini-o'zi boshqarish tizimi, **birinchidan**, O'zbekistonni bozor munosabatlariga o'tishi talablarini hisobga olib amalga oshirilgan bo'lsa, **ikkinchidan**, u shu sohadagi dunyoda qabul qilingan tizimlarga ham mos keladi.

Bu sohada Yevropada mahalliy o'zini-o'zi boshqarish doimiy konferensiyasining tashabbusi bilan Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan mahalliy o'zini o'zi boshqarishni Ovro'pa xartiyasi diqqatga sazovor. Yevropa xartiyasining asosiy maqsadi fuqarolarga o'z manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda ishtirok etishga imkon yaratuvchi va ularga eng yaqin turuvchi o'zini-o'zi boshqarish organlarini huquqlarini ta'minlash va himoya qilishdir. Yevropa Xartiyasiga qo'shilish ixtiyoriy bo'lib, u hech qanday moddiy mablag'lar talab etmaydi. Xartiyani Ovro'pa kengashiga kiruvchi davlatlar ixtiyoriy imzolashlari mumkin.

Xartiyaga taalluqli va umuman, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muammolari har yili bir marotaba mahalliy o'zini-o'zi boshqarish doimiy konferensiyasida ko'rib boriladi, bu konferensiya davlatlararo tashkilot bo'lmasdan, vakillik xarakteriga egadir.

O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish Yevropa Xartiyasining 3-moddasida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunining 1-moddasiga o'xshash ta'rif berilgan.

Fuqarolarning yig'inini (yig'ilishini) olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig'inni (yig'ilishni) rais (oqsoqol) yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq ovoz berish orqali va oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Qonunda rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi belgilangan, ularni fuqarolarning yig'ini (yig'ilishi) tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishgan holda saylaydi.

O'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda qonunda ular faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy negizi belgilanganligi hozirgi bozor munosabatlari o'rnatilgan davrda katta ahamiyatga ega.

O'zini-o'zi boshqarish organlari qurgan, sotib olgan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan binolari, ijtimoiy-maishiy va boshqa obyektlar, shuningdek sotib olingan transport vositalari, xo'jalik anjomlari hamda boshqa mol-mulk o'zini-o'zi boshqarish organlarining mulkidir, ya'ni bular o'zini-o'zi boshqarish organlarini iqtisodiy negizini tashkil etadi.

O`zini-o`zi boshqarish organlarining moliyaviy resurslari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan budjet mablag`laridan, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr ehsonlaridan, xayriya jamg`armalari ajratib beradigan mablag`lardan tarkib topadi.

O`zini-o`zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag`lari bankdagi mustaqil schetlarda saqlanadi, ular tomonidan mustaqil tasarruf etiladi va olib qo`yilishi mumkin emas.

O`zini - o`zi nazorat qilish savollari:

1. 1. Mahalliy hokimiyat organlari tushunchasiga ta'rif bering?
2. 2. O`zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlari tizimiga qaysi organlar kiradi?
3. 3. Mahalliy ijroiya hokimiyati deganda nimani tushunasiz?
4. 4. O`zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
5. 5. Hokimlar o`z lavozimiga qanday ega bo`ladilar?
6. 6. Hokim qanday huquqiy xujjatlar chiqaradi?
7. 7. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari deganda nimani tushunasiz?
8. 8. Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari qaysi hudud larda mavjud va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

X MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Reja

- 1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida odil sudlov organlarining huquqiy maqomi**
- 2. Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillari**
- 3. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi**
- 4. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi**
- 5. O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida odil sudlov organlarining huquqiy maqomi

O`zbekiston Respublikasining odil sudlov organlari, davlat hokimiyatining bir tarmog`iga kiruvchi va qonun ustivorligini ta'minlab, tartibga solib turuvchi organdir. **O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida** "O`zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi, Qoraqalpog`iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog`iston Respublikasining xo`jalik sudidan shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo`jalik sudlaridan iborat"dir-deb belgilangan. 14-dekabr kuni 2000 yil qabul qilingan "Sudlar to`g`risida"gi qonunning yangi tahririga ko`ra yuqorida sanab o`tilgan sud tizimiga o`zgartirish kiritib, sudlar ixtisoslashtirildi, ya'ni Qoraqalpog`iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha Oliy sudlari, fuqarolik va jinoiy ishlari bo`yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo`yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo`yicha tuman (shahar) sudlari joriy qilindi.

Har bir davlatda odil sudlov organlari tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilmalarda tashkil etiladi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish jarayonlarida korxona va tashkilot, davlat organlari va fuqarolar o`rtasidagi huquqiy munosabat natijasida kelib chiqadigan masalalarni belgilangan hududiy birliklar miqyosida ko`rib chiqadi. Shuningdek, sud organlarining vazifalari va maqsadlari odil sudlovni amalga oshirish, hamda Respublika Konstitutsiyasida belgilab berilgan talablarni bajarishdan iborat.

O`zbekiston Respublikasi odil sudlov organlari faoliyatining asosiy maqsadi, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy amal qilinishiga qaratilgan. Yuqorida ko`rsatilgan vazifalarni amalga oshirilishi uchun sud organlariga qonunda katta vakolatlar berilgan. Sudlar ixtisoslashuviga qarab:

1. 1. Jinoyat qilganlarga, jazo turini, jazo o`tash muddatini belgilaydi:
2. 2. Fuqarolar yoki tashkilotlar olgan majburiyatlarini bajarmagan hollarda, majburiy ijro choralari, fuqarolik huquqiy majburiyat normalarida belgilangan tartibda bajarilishiga majbur qilinadi.

Favqulodda sudlar tuzilishiga yo`l qo`yilmaydi. Sud organlarining faoliyatida, har xil siyosiy qarashlar, fikrlar asosida odil sudlov ishlari olib borilmaydi. O`zbekiston Respublikasida sud organlari faoliyatidagi eng muhim tamoyillardan biri Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi hisoblanadi, faqatgina sudlarga jinoyat ishlari va fuqarolik ishlarini qonunda belgilangan tartibda sudlov jarayonlarida davlat nomidan choralar ko`rish huquqi berilgan. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O`zbekiston Respublikasining Sudlar to`g`risida"gi qonunida sud organlarining faoliyat prinsiplari tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo`ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishiga yo`l qo`yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo`ladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadilar."

Sud hokimiyati davlat organlari tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyatining faoliyati inson huquqlari va erkinligiga bevosita aloqador bo`lib, odil sudlovni amalga oshirish

faoliyati natijasida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Sud hokimiyati huquqiy maqomining konstitutsiyaviy belgilanishi mazmunan shunday ifodalanadiki, unga asosan fuqarolarga nisbatan sudlovni amalga oshirishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yimaslik, odil sudlovni amalga oshirish, huquq va erkinliklar kafolatini yaratish, shuningdek fuqarolarga nisbatan chiqarilgan hukm va qaror yuzasidan shikoyat qilishlari uchun imkoniyat yaratish hamda sudyalarning mustaqilligini ta'minlash va ularning huquqiy holatini mustahkamlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyati uchun alohida XIII bob ajratilgan. Bu bobda "Sud hokimiyati" mohiyatini ochib beruvchi qator me'yorlar berilgan hamda sud faoliyatini tashkil qilish, sudlov tizimini belgilash kabi masalalar o'z yechimini topgan.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida tarkibiy qismi bo'lib, qonunchilik va ijroiya hokimiyati, siyosiy partiya hamda jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda harakat qiluvchi hokimiyat tarmog'idir.

Sud hokimiyati organlari sudyalarning faqat Konstitutsiya va qonun talablariga bo'ysunish tamoyiliga asoslanib, o'z mustaqilligini ta'minlaydilar. Ular odil sudlovni amalga oshirish faoliyati bo'yicha hech kimga hisobdor emaslar.

Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillari

Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillari – umumiy, rahbariy, birlamchi qoidalar bo'lib, davlat faoliyatining ushbu sohaga xos asosiy xususiyatlarini yoritib beradi. Ushbu tamoyillarning odil sudlovga doir qonunlarni yaratishda, sud hokimiyati davlat organlari mexanizmida, jamiyat siyosiy tizimida tutgan o'rni va rolini belgilab berishda alohida xizmati bor. Odil sudlov tamoyillarining yig'indisi odil sudlovni huquqiy tartibga solishda va amalga oshirishda muhim qalqon va poydevor hisoblanadi. Bu holat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Odil sudlov tamoyillarining xususiyati shundan iboratki, unda belgilangan qoidalar nafaqat fuqarolar, mansabdor shaxslar hamda davlat organlari uchun, balki qonun chiqaruvchi idoralar uchun ham taaluqlidir. Qonun chiqaruvchi va qonunga o'zgartirish kirituvchi organlar o'z faoliyatlari davomida demokratik talablar hamda an'analar qatori ushbu tamoyillarga ham amal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining odil sudlovga oid konstitutsiyaviy tamoyillarni belgilashda boshqa mamlakatlarning, shuningdek xalqaro huquqning ijobiy tajribalari hisobga olingan.

Odil sudlovni amalga oshirish va uning faoliyatini tashkil qilishda "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" kabi xalqaro hujjatlarning ilg'or g'oyalarini o'zida mujassam etganligi uchun ham g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar dunyoning ko'pchilik davlatlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi tomonidan ham e'tirof etilgan hamda undagi qoidalarga amal qilish majburiydir.

Odil sudlovning konstitutsiyaviy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Qonuniylik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlar hamda qonun osti hujjatlariga rioya qilgan holda hamma davlat va nodavlat organlari, tashkilotlari, mansabdor shaxslar tomonidan olib boriladigan faoliyat qonuniylikdir.

Sud sudlov ishlarini ko'rib chiqishda me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qonunga xilofligini aniqlasa, ushbu me'yoriy huquqiy-hujjatlarga emas, balki tegishli qonunga muvofiq qaror qabul qilishga haqlidir. Konstitutsiyaning 15-moddasiga binoan davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

2. Sud hokimiyatining mustaqilligi. Bu tamoyil qator qonun hujjatlarida mustahkamlangan: O'zbekiston Konstitutsiyasi (106-modda), "Sudlar to'g'risida"gi qonun (4-modda), "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonun (4,5-moddalar), Jinoyat-protsessual kodeksi (14-modda) va hokazolar.

Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud mustaqilligining mazmuni, sudlov ishlarini yuritishda shunday imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadiki, bunda sud faoliyatiga tashqaridan tazyiq o'tkazilmasligi, birovlarining aralashmasligi, qonunga muvofiq adolatli, asosli qarorga kelishi ta'minlanishi zarur.

3. Odil sudlovni amalga oshirishda barchaning qonun va sud oldida tengligi tamoyili. Qonun va sud oldida tenglik tamoyili (prinsip) asoslari qonunlarda yetarli darajada yoritilgan. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18, 44, 46-moddalari, "Sudlar to'g'risida"gi qonun 6-modda, Jinoyat protsessual kodeksining 16-modda).

"O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida, tengdirlar." (Konstitutsiyaning 18-moddasi)

Qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan qoidalarini barcha shaxslarga birdek qo'llashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha sud organi hisoblanib, Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish orqali sudlov hokimiyatini mustaqil amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi (Konstitutsiyaning 108-moddasi 1-bandi) Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani huquqiy muhofaza qiluvchi qonunlarni (qonunchilik va ijro hokimiyatining boshqa hujjatlarini) konstitutsiyasiga zid deb topishi, ya'ni ularni harakatdan to'xtatib qo'yishga ega bo'lgan maxsus organ hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bunday maxsus normalardan tashqari, sudni tashkil qilish va faoliyatini tartibga solishda, barcha sud organlari uchun umumiy hisoblangan konstitutsiyaviy qoidalar ham manba bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy sud yagona sud sifatida ta'sis etilgan hamda sudlov organlari tizimiga ega emas. Shuning uchun ham unga nisbatan Konstitutsiyada "Oliy yoki yuqori" deb daraja berilmagan.

Konstitutsiyaviy sud tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolari deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirda Oliy Majlis Senati ushbu moddada belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi. Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasini almashtirib bo'lmaydi va uning vakolatlari qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o'zga tarzda to'xtatilishi yoki to'xtatib turilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi

Konstitutsiyamizning 110-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi-fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining Oliy organi hisoblanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda ko'rsatilgan protsessual shakl va tartibda umumiy yurisdiksiyalı sudlar, shuningdek, harbiy sudlar faoliyati ustidan ham sudlov nazoratini amalga oshiradi.

Oliy sud qoidaga ko'ra, quyi sudlarning ma'lum ishlari bo'yicha yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatish maqsadida ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va qanchalik asosli ekanligini tekshirish yo'li bilan ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Oliy sud, sud amaliyotini umumlashtirish asosida, sud ishlarini ko'rib chiqishda yuzaga keladigan qonunchilikni qo'llash masalasidagi muammolar bo'yicha tushuntirishlar beradi, shuningdek Oliy Sud Plenumi tomonidan qonunchilikni qo'llash bo'yicha berilgan tushuntirishlarni sudlar tomonidan qanday bajarilayotganligini nazorat qiladi.

Oliy sud sudlov ishlarini birinchi instansiya, appelyatsiya, kassatsiya hamda nazorat tartibida ham ko'rib chiqishi mumkin.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 14-moddasiga muvofiq, Oliy Sud Oliy Sud raisi, uning o'rinbosari va o'rinbosarlari, sudlov hay'atlari raislari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan iborat bo'lib quyidagi tarkibda ish olib boradi:

- 1) 1) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;
- 2) 2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;
- 3) 3) Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- 4) 4) Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati;
- 5) 5) Harbiy hay'at.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi eng yuqori sudlov instansiyasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, Adliya vaziri, sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to'rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining a'zolariga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Plenum a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish avvalambor, Oliy sud raisi zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalardan tashqari, umumiy yurisdiksiyalik sudlarning barcha hukm va boshqa qarorlariga qonunda belgilangan tartibda protest berishi hamda ular ijrosini to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Oliy sud raisi:

Sud ishlarini nazorat tartibida tekshirish uchun talab qilib oladi;

Sudlar tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, hukmlar, ajrimlar va qarorlar ijrosini qonunda nazarda tutilgan tartibda nazorat qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatini chaqiradi hamda ularning majlislarida raislik qiladi.

Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga taqdimnomalar kiritadi; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tarkibi, sudlov hay'atlarining hamda Umumiy yurisdiksiya sudlari sudyalarining Oliy malaka hay'ati tarkibi va raislari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnomalar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi

Iqtisodiy sohada, turli mulk shakllariga ega tashkilotlar, idoralar, korxonalarni boshqarish jarayonida, shuningdek tadbirkorlar orasida vujudga keladigan munosabatlarda yuzaga chiqqan bahslarni hal qilish Respublikamizdagi xo'jalik sudlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudi tizimini Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar hamda Toshkent shahar xo'jalik sudlari tashkil qiladi.

Xo'jalik sudlarining asosiy vazifalari: tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonunchilikni to'g'ri va bir xilda qo'llash; iqtisodiy munosabatlarda

qonuniylikni mustahkamlash va qonunchilikning huquqiy vositalaridan foydalanishga sharoit yaratishdan iborat.

Xo`jalik sudlari faoliyatining asosiy tamoyillari hamda sud muhokamasi tartiblari ko`p holatlar bo`yicha fuqarolik jarayonidagi sud muhokamasiga mos keladi. Xo`jalik sudi faoliyatining asosiy tamoyillari: qonuniylik, xo`jalik sudylarining mustaqilligi; sud va qonun oldida hammaning tengligi; tomonlarning teng huquqliligi, ish yuritishda oshkoralik, sud muhokamasini yuritishda oshkoralik, sud muhokamasining bevosita va uzviy amalga oshirish hisoblanadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan huquqiy hujjatlari-xo`jalik sudining to`xtami, qarori, ajrimi barcha davlat organlari, mahalliy o`zini o`zi boshqarish organlari, hamda boshqa organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan O`zbekiston Respublikasining butun hududida bajarilishi shart.

"Sudlar to`g`risida"gi qonunning 43-moddasiga binoan O`zbekiston Respublikasining Oliy xo`jalik sudi xo`jalik ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining Oliy organidir.

O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi. Qoraqalpog`iston Respublikasi xo`jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo`jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko`radi. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo`jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo`jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo`jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o`rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

Oliy xo`jalik sudining vakolatlari uning vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Oliy xo`jalik sudi respublika boshqaruv organlari, mahalliy vakillik organlari va ijro hokimiyat organlari orasidagi o`zaro iqtisodiy bitimlardan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek, normativ xarakterdagi Oliy hokimiyat organlarining aktlarini (qisman yoki tamoman) Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi aniqlash bo`yicha ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida ko`rib chiqadi.

O`zini – o`zi nazorat qilish savollari:

1. 1. O`zbekiston Respublikasi sud tizimiga qaysi sudlar kiradi?
2. 2. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi qanday vazifalarni bajaradi?
3. 3. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. 4. O`zbekiston Respublikasi Oliy xo`jalik sudi va xo`jalik sudlari qanday nizolarni ko`rish bilan shug`ullanadi?
5. 5. Sudyalik lavozimiga nomzod oldiga qanday talablar qo`yilgan?
6. 6. Aybsizlik prezumpsiyasi nima?
7. 7. Sudyalarga qanday faoliyat bilan shug`ullanish ta`qiqlanadi?

"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY HUQUQI" O`QUV FANINI O`RGANISH BO`YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Rahbariy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: T-1.–T.: O`zbekiston 1996.- 364-bet.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin: T-2.–T.: O`zbekiston, 1996.-380 bet.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir: T-3.–T.: O`zbekiston, 1996.-338 bet.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan: T-4.–T.: O`zbekiston, 1996.- 349 bet.
5. Karimov I.A. Yangacha fikrlash va ishlash davr talabi: T-6.–T.: O`zbekiston, 1997.-384 bet.

6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida: T-6.–T.: O`zbekiston, 1998.-429 bet.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz: T-7.–T.: O`zbekiston, 1999.-4 bet.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz: T-8.–T.: O`zbekiston, 2000.-528 bet.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.T.10-T.: “ O`zbekiston”, 2002.-432b
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. T.11-T.: “ O`zbekiston”, 2003.-320b
11. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog`liq. T.12-T.: “ O`zbekiston”, 2004.-400b
- 12.Karimov I.A.: O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.–T.: O`zbekiston, 1997.-326b
13. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: « O`zbekiston”, - 96b.

2. Konstitutsiya, qonun va normativ hujjatlar.

- 2.1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o`n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan (2002 yil 27 yanvarda o`tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko`ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O`zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq Konstitutsiyamizning XVIII ,XIX, XX ,XXIII boblariga tuzatish va qo`shimchalar kiritilgan). –T.: O`zbekiston,2003.-40b..
- 2.2.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishni tashkil etish to`g`risida»gi 2001 yil 4 yanvardagi F-1322-sonli farmoyishi. «Xalq so`zi», 2000 yil Z yanvar.
- 2.3.O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risidagi 1991 yil 31 avgustdagi konstitutsiyaviy qonuni O`zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000 yil. -317b.
- 2.4.Mustaqillik deklaratsiyasi/ O`zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000 -317b
- 2.5.O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to`g`risida»gi qonuni. 1992 yil 2 iyul. O`zbekistonning yangi qonunlari, 6-son.–T.: Adolat, 1993.- 147b
- 2.6.«O`zbekiston Respublikasining Davlat bayrog`i to`g`risida»gi qonuni. 1991 yil 18 noyabr. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.7.«O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to`g`risida»gi qonuni. 1992 yil 2 iyul.O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.8. «O`zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to`g`risida»gi qonuni 1992 yil 10 dekabr. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.9.«O`zbekiston Respublikasi Davlat tili haqida»gi qonuni 1995 yil 21 dekabr. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.10.«O`zbekiston Respublikasining referendum to`g`risida»ga qonuni. 1991 yil 18 noyabr. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.11.O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to`g`risida»gi qonuni. 1994 yil 5 may. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000-317b
- 2.12.O`zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to`g`risida»gi qonuni. 1996 yil 29 dekabr. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000. -317b
- 2.13 .O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida»gi qonuni. O`zbekistonning yangi qonunlari, 19-son.–T.: Adolat, 1998. 157b

- 2.14.O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan hatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonuni. 1995 yil 30 avgust O'zbekistonning yangi qonunlari, 10-son.–T.:Adolat, 1995. 163b.
- 2.15.O'zbekiston Respublikasining 1994 yil maydagi «Fuqarolarning murojaati to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari, 10-son.–T.: Adolat, 1995. 163b
- 2.16.O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi qonuni. 1995 yil 21 dekabr O'zbekistonning yangi qonunlari, 12-son.–T.: Adolat, 1996. 146.
- 2.17.O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni 1996 yil 25 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari, 13-son: –T.: Adolat, 1996. 172b
- 2.18.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.–T.: Adolat, 1999.-180b
- 2.19.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.–T.: Adolat. 1998.-142b
- 2.20.O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni 1999 yil 14 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari, 21-son.–T.: Adolat, 1999. 135b
- 2.21.O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi 1997 yil 26 dekabr qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.18-son.–T.: Adolat, 1998.148.
- 2.22.«O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-xududiy tuzilish, toponomik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»ga O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1996 yil 30 avgust. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 14-son–T.: Adolat, 1997. 159b
- 2.23.« Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida (Konstitutsiyaviy Qonuni. 2002 y 4 aprel. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi -2002Y. №4-5. 60-modda
- 2.24 O'zbekiston Respublikasining “Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”gi qonuni. –T.: “Adolat”, 1999
- 2.25 O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. –T.: “Adolat”, 1995
- 2.26 . " O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 522-II-son Qonuni)
- 2.27. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 523-II-son Qonuni)
- 2.28.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida (yangi tahriri) (O'zbekiston Respublikasi 28.12.1993 y. 990-XII-son Qonuni)
- 2.29. . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 25.04.2003 y. 480-II-son Qonuni)
- 2.30 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va ko'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 24.04.2003 y. Qonuni)
- 2.31 ."Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida (O'zbekiston Respublikasi 13.12.2002 y. 446-II-son Qonuni)
- 2.32. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 434-II-son Qonuni)
- 2.33. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 432-II-son Konstitutsiyaviy Qonuni)
- 2.34. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 25.04.2003 y. 480-II-son Qonuni)
- 2.35. O'zbekiston Respublikasining «Prezident saylovi to'g'risida »gi 1991 yil 18 noyabr (2004 yil 3 dekabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan)
- 2.36 .«O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuni. 1993 yil 6 may. O'zbekistonning yangi qonunlari, 8-son.–T.: Adolat, 1994.(2003 y 29 avgust yangi tahriri)
- 2.37. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Qonun.. (O'zbekiston Respublikasi 2004 yil 2 dekabr Qonuni)

2.38. “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to`g`risida”gi Qonun. O`zbekiston Respublikasi 2004 yil 2 dekabr Qonuni)

2.39. «O`zbekiston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1994 yil 5 may. O`zbekistonning yangi qonunlari, 10-son, –T.: Adolat, 1994. 1999 yil 18 avgust, 2003 yil 27 avgustdagi o`zgartirish va qo`shimchalar bilan.

2.40. «Mahalliy hokimiyat idoralarini kayta tashkil etish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1992 yil 4 yanvar. O`zbekistonning yangi qonunlari, 5-son.–T.: Adolat, 1992.

2.41. «O`zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni 1993 yil 2 sentabr. O`zbekistonning yangi qonunlari, 9-son.–T.: Adolat, 1994.

2.42. «Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 yil 14 aprel. O`zbekistonning yangi qonunlari, 21-son.–T.: Adolat, 1999.

2.43. «O`zbekiston Respublikasining Sudlar to`g`risidaagi qonuni. Xalq so`zi, 2001 yil 13 fevral.

2.44. O`zbekiston Respublikasining «Prokuratura to`g`risida»gi qonuni. “Xalq so`zi” 2001 yil 30 avgust

2.45. «O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1995 yil 30 avgust. O`zbekistonning yangi Qonunlari, 11-son, –T.: Adolat.

3. Darslik, o`quv qo`llanmalari va qo`shimcha adabiyotlar

3.1. Abdumajidov R. O`zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuniga sharhlar–T.: Adolat, 1999.

3.2. A'zamxo`jayev A.A. Pravovie osnovi gosudarstvennoy nezavisimosti Respubliki Uzbekistan, –T.: Uzbekistan, 1993

3.3. Azizxo`jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.: Sharq, 1997,

3.4. Boboyev H.B., Normatov K, Milliy davlatchilik haqida. T.: O`zbekiston, 1999.

3.5. Jalilov SH. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti. Tajriba va muammolar. –T.: O`zbekiston, 1994.

3.6. Qayumov R.Q. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi T.: Adolat, 1998.

3.7. Inson huquqlari. (mualliflar jamoasi) T.: Adolat, 1997.

3.8. Inson huquqlari to`g`risida bill, –T.: Adolat, 1992.

3.9. Z.M. Islomov. Mexanizm osuvshestvleniya gosudarstvennoy vlasti, -T: Adolat, 1997.

3.10. Mahalla - o`zini-o`zi boshqarish organi. –T.: Fan, 1994.

3.11. Mingboyev U.. Sud shunday hokimiyatki., “^T.: 1999.

3.12. Muhamedov H.M. O`zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari. –T.: Adolat, 1999.

3.13. Одилқориев Х.Т. Новая Конституция-великий символ суверенитета Узбекистана, – T: Адолат, 1993.

3.14. Odilqoriyev H.T. O`zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo`linishi prinsipi. T.: 1993.

3.15. Odilqoriyev H.T. O`zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. T. Adolat, 1995.

3.16. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq, 2002.-320b

3.17. Rahmonqulov H. Fuqarolik: huquqlar, erkinliklar, burchlar. T.: O`zbekiston 1991.

3.18. Saidov A.H. Mustaqillik qomusi. T.: O`zbekiston, 1993.

3.19. Saidov A.H. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik .T-: 1995.

- 3.20.Saidov A.H. Saylov huquqi.–T.: 1994.
- 3.21.Saidov A.H. Jahon konstitutsiyaviy amaliyoti va O`zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni.– T: 1992.
- 3.22.Saidov A.H. Juzjoniy A. Sharq va inson huquqlari, –T.: Ijtimoiy fikr, 1998.
- 3.23.Saidov A., Sultonov S. O`zbekiston Konstitutsiyasi va inson huquqlari.–T.: 1999.
- 3.24. Saidov A.X. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari . Darslik.- T.: 2004
- 3.25.Saidov A.X , Tadjixonov U. Jahon Konstitutsiyalari.T 6 Adolat, 2001
- 3.26.Tadjixonov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi Darslik 2-jildli –T.: O`zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 1998.
- 3.27.Tansiqboyeva G. M, Muhammedjonov O.Z. Konstitutsiya va biz.T.: Adolat.1998.
- 3.28.Fayziyev M.O`zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o`quv qo`llanma).T.: Adolat, 1998.
- 3.29.Xalilov E.H. Saylov to`g`risidagi O`zbekiston qonunlarining qaror topishi va rivojlanishi.–T.: O`zbekiston, 1999.
- 3.30.Xalqaro tumanitar huquq, insonparvarlik va hayrixohlik muammolari institutlari.–T.: Adolat, 2000.
- 3.31.Xalq ishonchi-oliy mas'uliyat –T.: O`zbekiston, 2000.
- 3.32.Husanov O. T, Azizov X. T.Davlat va huquq asoslari. (Izohli lug`at).T: O`qituvchi, 1996.
- 3.33.Husanov O.T.: O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi qonuniga sharhlar.T.: Adolat, 1995.
- 3.34.Husanov O.T.: O`zbekiston Respublikasida davlat organlari.T.: Sharq, 1996.
- 3.35.Husanov O.T.: Mustaqillik va mahalliy hokimiyat.T.: Sharq, 1997.
- 3.36.O`zbekiston Respublikasi - mustaqil davlat. (mualliflar jamoasi).–T.: Adolat, 1995.
- 3.37.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar.–T: O`zbekiston, 2001.
- 3.38.O`zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi.–T.: O`zbekiston, 1993.
- 3.39.O`razayev SH.Z.Mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasi.–T.: 1995
- 3.40.Qayumov R.Q. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 1997 y.
- 3.40. Конституции мира: Сборник конституций государств мира / Сост., авт.: У. Таджиханов, А. Х.Саидов, -Т., 1997 й.
- 3.41.O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi.T. Moliya nashr. 2002.-632b
- 3.42. Majdunarodnix dogovorov i Zakonov Respubliki Uzbekistan). T. I. (Sost. A.X.Saidov; Gl.red. V.E.Shall; Otv.red.O.V.Shatunovskiy). – T.: Shark, 1995 y.
- 3.43 .Axmedov D.K. Horijiy mamlakatlar davlat (konstitutsiyaviy) huquqi kursini o`rganish yuzasidan o`quv-uslubiy tavsiyanoma. T.: - 1999.
- 3.44. Davlat va jamiyatning demokratik yangilanish bosqichida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashning dolzarb muommolari./ Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari//.T.Toshkent davlat yuridik instituti. 2002.
- 3.45. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – davlat va jamiyat islohotining huquqiy asosi / Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. 2002.
- 3.46 .O`zbekistonda hakamlik sudlari. Tahlil va rivojlanish yo`nalishlari: ilmiy-amaliy qo`llanma / Tahrir kengashi: H.R. Rahmonqulov, SH.M.Asyanov, M.SH. Kulikova va boshq.; Ma'sul muharrir: SH.M.Asyanov.-T., “ Sharq”, 2004
- 3.47. 3.47. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriyev. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T., «Sharq», 2001. -750b.